

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

AHMADJANOVA DILNOZA ISROIL QIZI

“YEVROPADA INKVIZISIYAVA UNING OQIBATLARI”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o`qt. Mavlonov A.

NAMANGAN-2019

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. INKVIZITSIYANING VUJUDGA KELISHI TARIXI

1.1.Inkvizitsiyaning vujudga kelishi sabablari tarixi tahlili	9
1.2. Inkvizitsiyaning asosiy tashabbuskorlari faoliyati tarixi (Rim papalari misolida)	30

II BOB. INKVIZITSIYANING ENG MASHHUR QURBONLARI TARIXIDAN(XV –XVIII ASRLARDA)

2.1.Jodugarlikda ayblab yoqib yuborilgan tarixiy shaxslar va davlat arboblari.....	43
2.2. Cherkov va ilm kurashi: cherkovning ilm-fan namoyondalari ustidan amalga oshirgan jinoiy harakatlari tarixi.....	55

XULOSA.....	65.
--------------------	------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	67
--	-----------

KIRISH

«Ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugun zamon talablari asosida takomillashtirish birinchi darajali vazifamizdir».

Sh. M. Mirziyoyev.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab butun ta'lim tizimini tubdan isloh qilish rejalari ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor berildi. Xususan, 1997 - yilning 29 - avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9 - sessiyasida ta'lim to'g'risidagi qonunga asoslangan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"¹ qabul qilindi.

Hozirgi kunda Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da nazarda tutilgan barcha rejalar muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi va davom ettirilmoqda. Tabiiyki, bu maqsadlarni yuqori saviyada amalga oshirish uchun oliygohlar, kollej va litseylarning bitiruvchilari har tomonlama yetuk kadrlar bo'lib yetishmog'i – zamon talabidir.

Birinchi Prezidentimiz muntazam ravishda yosh avlodning barkamol bo'lib yetishishi va mustaqil O'zbekistonimizning fidoyi kadrlari bo'lmog'i uchun sharoitlar yaratib berdilar, o'zlarining har bir nutqida yoshlarning ta'lim tarbiyasi, bilim saviyasi, dunyoqarashini shakllantirish kabi dolzarb muammolarga alohida e'tibor qaratdilar.

Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev quyidagi jumlani alohida ta'kidlaydilar²: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

¹ I.A.Karimov 1997 - yilning 29 - avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9 - sessiyasida ta'lim to'g'risidagi qonuni.

² Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 14.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”

Bu masalani hal qilish uchun qo'yilgan qadamlardan biri – “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroridir³. Mazkur qarorda ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8 oktyabrdagi F-4724-son farmoyishi bilan tashkil qilingan Ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi holatni o'rganish natijalariga ko'ra, bir qator oliy ta'lim muassasalarida hali ham ilmiy-pedagogik salohiyatning pastligi, ta'lim jarayonlarini axborot-uslubiy va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnika bazasini tizimli yangilashga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, boshqa vazifalar bilan birga “yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tadbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish” masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng, qisqa muddat ichida respublikamizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va iqtisodiy sohalarida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, ushbu davrda erishgan eng buyuk va bebaho yutuqlarimizdan biri – bu insoniyat tarixi va jahon sivilizasiyasida o'z o'rniga ega bo'lgan o'zbek xalqining ko'p asrlik boy madaniy va ma'naviy merosini mazmunan yangitdan o'rganish, uzoq yillar davomida soxtalashtirib kelingan haqiqiy tariximizni o'rganish va amalda tarixiy haqiqatning tiklanishi, jamiyatda ma'naviy-axloqiy poklanish jarayonlarining amalga oshirilishidir.

³ “Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zR Prezidenti qarori. O'R Qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil, 18-son 313-modda, 19-son 335-modda, 24-son 490-modda.

“O’rta asrlar” atamasi o’z davridan ancha keyin kiritilgan bo’lib, dastlab uni antik davr bilan bog’liq bo’lgan barcha narsalarga qo’yilgan qat’iy ta’qiqlarning davrini aniqlash uchun kiritilgandi. G’arbiy Rim imperiyasining qulashi va Uyg’onish davrining boshlarigacha davom etgan davr, taxminan VI va XVI asrlar oralig’ida chegaralangan bo’lib, bu ming yillik o’rta asrlar deb ataladi. o’rta asrlar paytida inkvizitsiyaning qanchalik shavqatsiz bo’lganligini, o’zgacha fikrlovchilarga nisbatan qanday zo’ravonlarcha harakat qilganligini ko’rsak, bu davrning o’rtalariga kelib, turli konfessiyalar vakillari huquqlarining tenglashganini ko’ramiz.

O’rta asrlar – bu cherkov hukmronligi davridir. U Yevropa sivilizatsiyasining yadrosi bo’lib, atrofida xalqlarni jamladi va ma’daniyat markaziga aylandi.

Ushbu ishda inkvizitsiya tarixining XIII asr oxiridan XVI asr boshlarigacha bo’lgan davrini ko’rib chiqiladi. O’rta asrlarda katolik cherkovi uchun asosiy tahdid bu – Rim papasi ta’limotiga, Injilning talqiniga va ruhoniylarning muqaddasligiga shubxa bilan qarovchi murtadlar edi. Ular o’z g’oyalarini xalqqa yetkazib, hamma yerda tartibsizliklar va qo’zg’alonlar ko’tarishardi. Bu davrda bid’atchilarga qarshi kurashdagi asosiy vosita ruxoniylar tergov-i-inkvizitsiya edi. O’rta asrlarda cherkov gullab-yashnadi va mislsiz qudratga ega bo’ldi. XII asr oxiri XIII asr boshlarida Rim papaligi taxtiga Innokentiy III o’tirdi. U o’zini Masihning yerdagi vakili deb e’lon qildi. U bilimli, aqlli va ayyor diplomat bo’lib, o’z kuchini taxtini mustahkamlash uchun sarfladi.

U cherkov sudini dunyoviy sud (qirollik sudi)dan ustunligiga erisha oldi, to’rtinchi salib yurishlarini uyushtirdi, fransiskanlar va dominikanlar ordenlarining xalq orasida mashhurligidan cherkovning obro’yini mustahkamlashda foydalandi. Keyinchalik bid’atchilar qarshi kurashuvchi (inkvizitsiya) cherkov sudidan ma’rifatli olimlar va o’ziga nomaqbul bo’lgan oddiy insonlarni yo’qotishda foydalana boshlashdi. Jismoniy nuqsoni bo’lgan bolalar Shaytonning o’g’illari, go’zal ayollar jodugar, tabib va doya ayollarni esa Shayton bilan til biriktirganlikda ayblandi. Ularning hammasi inkvizitsiyaning qurboniga aylanadilar. Cherkov

bid'atchilar bilan kurashgan mana shu bir necha asr davomida Yevropa aholisining 12 million kishisi yo'q qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar saqlanib qolgan. Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi mazkur davrning jahon tarixidagi roli, shuningdek, papa Innokentiy III ning dunyo tarixidagi birinchi inkvizitor sifatidagi faoliyati bilan bog'liq faktlar, Genrix Kramer va Yakob Shprengerning asarlarini o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi. O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, "Inkvizitsiya" tarixi, uning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda asosiy qurbonlari, harakatlanish va boshqaruv strukturasi masalalari bir qator mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, Y. Shprenger, E. Anners, A. Arnu, V. V. Bolotov, T. P. Gusarova, T. N. Granovskiy, I. R. Grigulevich, A.Y. Gurevich, E.V. Gutnova, J. Dyubi, M.I. Zaborov, D.S. Zankov, L. R. Karsavin⁴larni bu boradagi ishlarini alohida e'tirof etish o'rinlidir. Ammo shuni unutmash kerakki garchi chet elda bu mavzu yaxshi o'rganilgan bo'lsada, ushbu mavzu yurtimiz tadqiqotchilari tomonidan yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

⁴ Шпренгер, Я., Инсистерис, Г. Молот ведьм / Я. Шпренгер, Г. Инсистерис. Пер. с лат. Цветков Н.; Предисл. Лозинский С.Г. 2-е изд. – М.: Интербук, 1990. – 351 с; Альтамира-и-Кревеа, Р. История Средневековой Испании / Р. Альтамира-и-Кревеа. Пер. с испанского Е.А. Вадковской, О.М. Гармсен. – СПб.: «Евразия», 2003. – 608; Аннерс, Э. История европейского права / Э. Аннерс. Пер. со шведского. Отв. ред.: Кудров В.М., Машлыкин В.Г.; Пер.: Валинский Р.Л., Волков А.М., Исаев М.А., Шенявская Т.Л. – М.: Наука, 1996. – 395 с; Арну, А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – 320 с; Болотов, В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – 234 с; Величина, В. Очерки истории инквизиции / В. Величина. – М., 1906. – 304 с; Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – 600 с; Гергей, Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – 386 с; Грановский, Т.Н. Лекции по истории средневековья / Т.Н. Грановский. Составитель С.А. Асинновская. – М.: Наука, 1971. – 604 с; Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕРРА-Кн. клуб, 2002. – 479 с; Григулевич, И.Р. Папство. Век XX / И.Р. Григулевич. – М.: Политиздат, 1974. – 424 с; Григулевич, И.Р. Преступления инквизиции в Испанской Америке (XVI-XIX вв.) / И.Р. Григулевич // Новая и новейшая история. 1966, № 6. С. 34-46; Гуревич, А.Я. Проблемы средневековой народной культуры / А.Я. Гуревич. – М.: Искусство, 1981. – 358 с; Гутнова, Е.В. Классовая борьба и общественное сознание крестьянства в средневековой Западной Европе (XI-XV вв.) / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1984. – 352 с; Гутнова, Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – 268 с; Дюби, Ж. Европа в Средние века / Ж. Дюби. – Смоленск: Полиграмма, 1994. – 320 с; Заборов, М.И. Папство и крестовые походы / М.И. Заборов. – М., 1960. – 406 с; Занков, Д.С. Ведовские процессы в Западной Европе (XV-начала XVIII вв.): автореф. дис. ... канд. ист. наук / Д.С. Занков. – СПб., 200 – 245 с; Карсавин, Л.П. История европейской культуры: в 2 т. Т. 2. / Л.П. Карсавин. – СПб.: Алетея, 2001. – 334 с

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi sifatida inkvizitsiya rasmiy ravishda paydo bo'lgan 1215-yildan (XIII asr) boshlab u o'z faoliyatini to'xtatgan 1809-yil (XIX asr)gacha bo'gan davr olindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mavzuning maqsadi inkvizitsiya tushunchasi va uning mohiyati va insoniyat oldidagi jinoyatlarini manbalar asosida ochi berishni ko'zda tutadi.

Mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni belgilangan:

- “Inkvizitsiya” iborasining ma'nosini tahlil qilgan holda uning mohiyatini ochib berish;
- Inkvizitsiyaning boshqaruv strukturalari va faoliyati tizimini tahlil qilish;
- Inkvizitsiya qudratini oshirishga faol harakat qilgan hamda bu orqali diniy diktatura o'rnatishni maqsad qilgan Papalar va diniy amaldorlar faoliyatini tadqiq qilish;
- Inkvizitsiyaning ilm-fan taraqqiyotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri real baholash kabi masalalarni nazarda tutadi;

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Mavzuning o'rganilish obyekti sifatida Inkvizitsiyaning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanishi masalalari nazarda tutilsa, uning predmetini yuqoridagi masalalar yuzasidan yangi bilimlar hosil qilish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida Yevropada o'rta asrlarda katolik dinining tutgan o'rni o'rganib chiqildi. Xususan, Yevropaning turli mamlakatlarida katolik dinining siyosiy hayotga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq masalalari, turli mamlakatlardagi inkvizitsiya jarayonlari, inkvizitsiya tarixidagi eng mashhur shaxslar hamda uning qurbonlari faoliyati yoritildi. Ushbu bitiruv malakaviy ishda turli ilmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida inkvizitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib umumlashtirildi. Bu ishning ilmiy ahamiyatini belgilab beradi. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalaridan, oliy o'quv yurtlarida talabalarga ma'ruzalar o'qish jarayonida, jahon tarixining tegishli

bo'limlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari yozishda, maxsus kurslarda qo'llanma, monografiya va risolalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni inobatga olgan holda kirish, ikkita bob va to'rtta bo'lim, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat.

I BOB. INKVIZITSIYANING VUJUDGA KELISHI TARIXI

1.1. Inkvizitsiyaning vujudga kelishi sabablari tarixi tahlili

Din tarixida inkvizitsiya ko'plab afsonalarga ega g'alati hodisa hisoblanadi. U diniy kurashdagi eng kuchli qurol edi. Inkvizitsiya bu – kuch ishlatish yo'li bilan taftish o'tkazishdir. O'rta asrlarda muqaddas inkvizitsiya yeretik deb hisoblagan dindorlarni cherkovdan ajratib, sud qilishga intilgan. Uning asosiy maqsadi ayblanayotgan shaxsni chindanam yeretik ekanligini isbotlash bo'lgan. Nima to'g'ri, nima noto'g'ri, qaysi so'zlar Xudoniki, qaysilarini yeretiklar o'ylab topgan barchasini Papa cherkovi belgilab bergan⁵.

O'rta asrlarda katolik cherkovi uchun asosiy tahdid yeretiklar—ya'ni Rim Papasi ta'limotini, Evangeliyaning talqinini va ruxoniylarning muqaddasligini shubxa ostiga qo'yuvchilar edi. Ular o'zlarining isyonga undovchi g'oyalarini xalq orasida yoyardilar. Ushbu davrda cherkov sudlari o'zgacha fikrlovchilarga qarshi kurashda eng asosiy vositaga aylangandi⁶.

Rim-katolik cherkovi o'rta asrlardagi eng qudratli umumyevropa institutlaridan biri edi. Aynan uning harakatlari g'arbiyyevropa mamlakatlarining bir-biriga zid keluvchi qarashlarini umumiy manfaatlarga birlashtira oldi, ular joylashgan hudud esa yagona jamiyatga birlashdi⁷.

O'rta asrlarda cherkov barcha insonlarni qatlamlarga bo'lgandi. Eng yuqori qatlam deb ruxoniylar, o'rta qatlam - qirol va dvoryanlar, oddiy insonlar esa quyi qatlam deb hisoblanardi. Yuqori qatlamning asosiy vazifasi - inson qalbini gunoxlardan ximoya qilish, Xudodan uning gunoxlari avfini so'rash bo'lgan. Dvoryanlar esa qirol va ruxoniylarni tashqi dushmandan ximoya qilishi, oddiy insonlarning vazifasi esa yuqoridagilarning hammasini boqishi kerak bo'lgan.

⁵ Аннерс Э. История европейского права / Э. Аннерс. Пер. со шведского. Отв. ред.: Кудров В.М., Машлыкин В.Г.; Пер.: Валинский Р.Л., Волков А.М., Исаев М.А., Шенявская Т.Л. – М.: Наука, 1996. – С.45.

⁶ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.14.

⁷ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.37.

XII asrning boshlarida papa Innkentiyy III tomonidan daxriylarni ta'qib etish haqida buyruq chiqargan kun inkvizitsiyaning tug'ilgan kuni sanaladi. Muntazam faoliyat yuritgan davri esa papa Grigoriy IXga to'g'ri keladi. Inkvizitsiya terminining o'zi avvaldan mavjud edi, lekin XII asrgacha daxriylarni katolik cherkovining ta'limotini qabul qilishdan bosh tortgani uchun kam yoqishardi. Dinsli "O'rta asrlar cherkovi tarixi"da 1075-yili yoqilgan qatar haqida va 1114-yili g'azablangan olomonning daxriylikda ayblanganlarni qamoqdan chiqarib yoqib yuborganliklari haqida yozadi. Lekin, qachon cherkov o'z qarashlariga hamfikir bo'lmaganlarni tirik qoldirish xavfli deb qaror chiqarganidan keyingina Muqaddas inkvizitsiyaga asos solinadi.

"Yeres" (grekcha "xayrezis" "tanlov") daxriylik so'zining o'ziyoq ta'qibchilarni o'ylantirib qo'yishi kerak edi, o'zgalarning fikrlashiga bunchalik zo'ravonlarcha aralashishga inkvizitorlarning haqqilari bormikin. Lekin ta'qibchilar ko'r-ko'rona ishonch sohiblari bo'lib, o'zlaridagi kabi imoni bo'lmaganlarni faqatgina ularning dogmalarini qabul qilmaganlari uchun ham jismoniy, ham ruhiy qiynoqlarga duchor etardilar.

O'zgacha fikrlovchilarni ta'qib etish din tarixida avvalari ham bo'lgan, lekin ularni inkvizitsiyaning daxshatlari bilan solishtirib bo'lmaydi⁸. Rimliklar tomonidan xristianlarni ta'qib etilgani haqida ko'p yozilgan, lekin Filipp (Ispaniya) II ning davridagi qurbonlarning soni Rim imperatorlarining buyrug'iga ko'ra o'ldirilganlarnikidan bir necha ming marotabaga ortadi. Buning ustiga rimliklar majusiy edilar va ularda katoliklardagi kabi bir-biringlarni sevinglar degan Tangrining so'zlari yo'q edi⁹.

Varvarlar Rimni vayron qilgan V asrdan to XII asrga qadar ham diniy ta'qiblar bo'lgan bo'lsa ham cherkovning dogmalarini qabul qilmay, o'zlari yaxshiroq deb bilgan, o'z g'oyalarini afzal ko'ruvchi odamlar bor edi. Ularning orasida qatarlar, gnostiklar, arianlar, manixenlar va valdenslar bor edi¹⁰.

⁸ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.74.

⁹ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.15.

¹⁰ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.41.

1198-yili katolik cherkoviga yangi papa— Innokentiy III saylanadi. U ilk kunidanoq daxriylikka butunlay barxam berib, muqaddas katolik dinini yoyishga qat’iy qaror qilgandi. U Fransiyaning janubidagi ahvoldan xabardor bo’lganligi uchun bu 30yillik beboshlikka nuqta qo’yishga qaror qiladi. Bu masalani tinch yo’l bilan hal qilish uchun, u yerga missionerlarni jo’natadi. Ular ruhoniy Dominik va yepiskop Ozmskiylar edi. Dominik va Ozmskiy o’z vazifalariga sidqidildan yondashib, algiboyslar orasida katta shijoat bilan va’zlar o’qiy boshlashadi. Lekin algiboyslar o’zlarining erkin hayotlarini va erkin munozaralarini shunchalik yaxshi ko’rardilarki, shuning uchun ham papaning avvalgi elchilari kabi bu missionerlarning ham ularga ta’siri sezilarli bo’lmadi. Algiboyslar ularni tinch qo’yishlarini istashardi. Bunday holatdan xavotirlangan missioner Pyer de Kastelno Innokentiy IIIdan daxriylarga qarshi qat’iy choralar ko’rilishini talab qilganidan so’ng biroz vaqt o’tib Papaga uning o’ldirilganligi haqidagi xabar yetib keladi. Shundan so’ng Innokentiy III “Cherkovni sevgan har bir kimsa uchun daxriylarga qarshi chiqish, uning uchun burchdir” deb e’lon qiladi. U Fransiya qiroli Filipp IIga algiboyslarga qarshi salib yurishlari uyushtirishni buyuradi. Shu tariqa 1208-yili algiboyslarga qarshi urush boshlanadi.

Inkvizitsiyaga urug’ bo’lgan algiboys urushlari tez orada diniy urushdan, din bayrog’i ostidagi bosqinchilik yurishlariga aylanib ketadi. Negadir, aynan boy odamlar inkvizitsiyaning qurboniga aylanadilar¹¹.

Nima uchun shunday? Bu savolga aniq javob berish qiyin, chunki odamlarning haqiqiy maqsadlari odatda yashirin bo’ladi. Papa Grigoriy IX inkvizitsiyaga asos bo’lgan bullasida barcha daxriylarni cherkovdan holidirlar deb e’lon qiladi. Bullada daxriylik uchun sud qilinganlarni cherkov jazolashi kerak, uning ijrosini esa dunyoviy hokimiyat ta’minlashi kerak. Tavba qilmaganlar gulxanda yoqilishi, tavba qilganlar esa bir umr bandilikda yashashi kerak. Daxriylarga kim yordam bersa ularni cherkovdan chetlatish, chetlatilganlar bilan do’st tutinganlarni ham

¹¹ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.16.

cherkovdan chetlatish lozim. Daxriylikda ayblanganlarning yana ikki avlodiga esa har qanday lavozimni egallash ta'qiqlanadi deyiladi¹².

Ilk inkvizitorlar esa dominikan va fransiskan ordeni vakillari bo'ldilar. Muqaddas Dominikan va muqaddas Fransisk Isoga chin yurakdan xizmat qilishni istovchi diyonatli kishilar edilar. Aynan mana shu orden vakillarining birinchi inkvizitorlar bo'lishlarida taqdir hazili bordir.

1215-yili Soborning 12-yig'ilishi yeretiklarning ko'payib ketganligi uchun cherkov tomonidan sudlanganlarni munosib jazoga tortish uchun davlatga topshirish kerakligi haqida qaror chiqaradi.

O'rta asrlardagi odamlarning dunyoqarashi hozirgi payt bilan taqqoslaganda tor edi. Ular jodugar, ajdaxo, afsungar hamda sh.k larga ishonishgan. Fan hozirgi davrdagidek rivojlanmagan edi. O'z dunyoqarashiga ega bo'lgan yoki o'rta asr ruhoniylarining qaysidir fikrlari bilan qo'shilmagan har qanday odamga "yeretik" tamg'asi urilardi. Bunda uning olimligi ham, aslzodaligi ham hisobga olinmagan. 100tadan 99ta holatda gumonlanayotgan shaxs daxshatli qiynoqlarga duchor etilib, oxir oqibat tiriklayin gulxanda yoqilishga hukm qilinardi. Bu borada doimo ruhoniylar haq, ularning gaplari to'g'ri deb qaralgan. Xudoning so'zlari hamda "muqaddas inkvizitsiya"ni o'ziga niqob qilib olganlar o'zlari bilan hamfikir bo'lmagan odamlarning kattagina qismini shu yo'l bilan yo'qotadilar. Shu tufayli ham o'rta asrlardagi odamlarning ongida yeretik deb hukm chiqarilgani har qanday shaxsni gulxanda yoqish yoki inkvizitsiya sirtmog'ida osish kerak degani degan qat'iy qonun o'rnashib qoladi. Odatda tergovchini ham, qoralovchini ham, sudya rolini ham bitta shaxs bajargan. Oddiygina chaqimchilik ham cherkov tomonidan tergov olib borish uchun asos bo'lib xizmat qilaverardi. Inkvizitsiya jarayoniga tortilgan shaxs hech qachon undan tirik chiqmagan. Uning mol-mulki esa musodara qilinib asosan cherkov hamda qirol o'rtasida bo'lib olingan. Yeretikni

¹² Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.43.

tutib bergan yoki yeretik chiqqan viloyat hokimiga ham ma'lum qismda ulush tekkan¹³.

Daxriylikda birinchi marotaba kimni ayblashgani haqida aniq ma'lumot yo'q, lekin ularning ichida eng mashhuri shubxasiz Jordano Brunodir. U o'rta asrlarning astronom olimi bo'lib, o'sha davrdagilar aytganidek bizning sayyoramiz tekis emas, yumaloq shaklda ekanligini aytgan. Biroq jamiyat uning qarashlarini qabul qilmadi, cherkovning qaxriga uchrab, gulxanda yoqish uchun hukm qilindi.

“Inkvizitsiya” so'zi o'rta asrlarda “qidiruv”, “izlash” degan ma'nolarni bildirgan. Uning qudrati, ta'siri va kuchi faqat qaysidir mamlakatlarga emas, balki butun boshli Yevropaga tarqalgan.

XV asrning ma'lum bosqichida inkvizitsiya tarixi sir tutiladi. Inkvizitsiya deyarlik hech kimga shavqat qilmagan. Agar tahdid, yolg'on, kelishuvlar ayblanuvchiga ta'sir eta olmasa, unda keyingi bosqich qiynoqlar bo'lgan. Qiynoq va azoblar o'zgacha fikrlovchilarning ongini tozalaydi deb hisoblashardi. O'sha paytda qonuniy ravishda ruxsat etilgan qiynoqlarning turlarining butun boshli ro'yxati bo'lgan¹⁴.

Tishli boshmoqlar. Ushbu oyoq kiyimi temirdan bo'lib, uning tovonida o'tkir uchli temiri bo'lgan. Qurbonlar kuchlari tugaguncha temir tish tovonlariga kirmasligiga harakat qilib, oyoqlarining uchlarida turardilar.

“Yeretik vilkasi”– ushbu moslama ikki tomondan ikkitadan chiqqan o'tkir tishlardan iborat ko'rinishda bo'lib, uning ikkita yuqorisi iyakni, ikkita pastkisi esa ko'krakni maxkam qisib, uni butunlay harakatsiz qilib qo'yib, hatto boshini ham qimirlata olmay qolardi, natijada bosh uyushib, miyaga qon quyilgan¹⁵.

“Jodugarlar kursisi” kursi baland yog'ochga osilgan bo'lib, jodugarlikda ayblanayotganlarni ushbu kursiga avval maxkam bog'lagan holda, ma'lum muddatga suvda ushlab turilgan. Keyin jodugarga nafas olishga biroz imkoniyat berib, yana suvga botirganlar... bu qiynoq ayniqsa qishda daxshatliroq ko'rish

¹³ Аннерс Э. История европейского права / Э. Аннерс. Пер. со шведского. Отв. ред.: Кудров В.М., Машлыкин В.Г.; Пер.: Валинский Р.Л., Волков А.М., Исаев М.А., Шенявская Т.Л. – М.: Наука, 1996. – С.46.

¹⁴ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.25.

¹⁵ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.46.

olardi. Muzda teshik hosil qilib, jodugarni shunchaki suvga botirib olmasdan, suvning yuzasining yupqa muz qatlami egallab olgunigacha kutib turishgan¹⁶.

“Mushuk panjasi”– yeretikka sanchilganidan uning terisi sekin va azobli ravishda yirtila boshlagan. Ba’zida changak (yoki ilmoq) qurbonning ichki azolariga qo’shib, qovurg’alarini ham sug’urib olgan. Bu eng daxshatli va qadimiy qurol bo’lib uning yordamida inkvizitsiya xizmatkorlari yeretiklardan iqrornomani olishga intilganlar.

Inkvizitorlar tomonidan o’ylab topilgan boshqa qiynoq choralari ichidagi yana biri bo’lib, u “ispan etigi” deb nomlangan. Ushbu moslamaning maxsus fiksatsiyalik plastinasi bo’lib, uning qurbonning oyog’iga tasma yordamida maxkamlab o’rnatilib, har safar javob qaytarishdan bosh tortganida tasmani yanada kuchliroq tortilgan. Oxir-oqibat, oyoq suyagi singan. Natijada, yeretik tizzasidan pastdagi maydalangan suyaklar bilan qolgan.

O’rta asrlarda qiynash uchun ishlatiladigan moslamalardan yana biri “diba” deb nomlanadi. Unda yelka bo’g’imlarini orqaga qayirgan holda, yeretikni shiftga osiladi, oyog’iga esa asta-asta og’ir yuk osib boriladi. Natijada unda daxshatli, chidab bo’lmaydigan og’riq paydo bo’lib, og’irlik kuchi ta’sirida tortilgan yelka kamaridagi bo’g’imlar va muskullar uzilib ketadi.

Yeretiklarning ko’p asrlik qiynoqlari o’rta asr cherkovining o’z g’oyaviy raqiblari oldida ojizligining yorqin dalilidir. Ruhoniylar Xudoning So’zi bilan g’alaba qilolmadilar. Buni hokimiyatning kuchi va zo’rlik bilan qilish osonroq edi. Bu o’zgacha fikrlovchilar hamda jodugarlarga qarshi doimiy kurash davri edi. XIII asrda papa Grigoriy IX yeretiklarni ta’qib etish funksiyasini yepiskoplardan olib, inkvizitorlarga topshiradi. Yevropada yeretiklarni tergov qilish, hukm chiqarish va uni ijro etish vakolatlariga ega bo’lgan tribunallar tashkil etiladi.

Ayniqsa, Ispan inkvizitsiyasi shavqatsiz edi. Uni qirollik hokimiyati qo’llab-quvvatlagani uchun, Yevropadagi mustahkam pozitsiyalarga ega edi. Faqatgina XV asrda bosh inkvizitor Torkvemadaning faoliyati davomining o’zida o’n

¹⁶ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.174.

mingdan oshiq odam yoqib yuboriladi. Ispan inkvizitsiyasining shuxrati boshqalarini bosib qo'ydi. Bu yerda u o'zining apogeyasi (avjiga) chiqadi va inkvizitsiya mavjud bo'lgan boshqa davlatlar uchun etalon vazifasini o'tadi. Bu yerdagi qiynoqlar o'zining xilma-xilligi, shavqatsizligi bilan ajralib turadi.

XV asrning oxiriga kelib, Ispaniya qirolligi, Kastiliya va Aragonning birlashishi tufayli vaziyat o'zgaradi. Iberiy yarim orolining janubi mavrlardan ozod bo'ladi va eng asosiysi Amerikaning kashf etilishi Ispaniyani eng yirik qudratli kolonial davlatga aylantiradi. Ispan taxti iuzeit ordeni yordamida kontreformatsiyalar hisobiga o'z pozitsiyalarini mustahkamlashni davom ettiradi. Bu borada ispan inkviziysiyasi ideal vositaga aylanadi.

Inkvizitsiya shaharlar erkinliklarini bekor qiladi yoki cheklab qo'yadi. XV asrda "yangi" inkvizitsiya joriy etiladi (1478-1483-yy). Izabella I va Ferdinand V avval Aragon, Kastiliya va Sitsiliyani keyin esa Ispaniyaning butun janubiy qismini birlashtiradilar. Ular Sitsiliyalik inkvizitor Barberisga favqulodda huquqlar berishadi. 1478-yili papa Sikst Kastiliyada ham inkvizitsiyani joriy etadi (bu inkvizitsiyaning ilk marotaba joriy etilishi edi bu yerda). Ommaviy qatllar boshlandi. Qiynoq qurollari va texnikasi takomillashtirildi. Sevilyada turmalar to'lib ketganidan o'lat epidemiyasi tarqaladi. Epidemiya to'xtaganidan keyin ham " qonli qirg'in" davom etdi. Tomas Tarkvemadaning Ispan inkvizitsiyasiga tayinlanganidan keyin inkvizitsiyaning yangi to'lqini boshlandi. Bu paytda Ferdinand V (1483-yil) yeretiklar mulkini musodara qilish bilan shug'ullanuvchi oliy majlisni joriy qiladi. Ispan inkvizitsiyasining asosiy dushmanlari esa yaxudiylar, marranlar ("yangi xristianlar") va moriskalar (xristianlikni qabul qilgan mavrlar) edilar. Ularga qo'yilgan rasmiy ayblovlar esa xristianlikka nisbatan nosamimiylik bo'lib, ularni o'zlarining eski dinlariga e'tiqod qilishni davom ettirishda ayblashadi. Ularni ta'qib etishdan maqsad esa mulklarini tortib olish va shu yo'l bilan dehqon va xunarmandlar qatlamlari orasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavfni hali tug'ilmasidan oldin bartaraf etish edi¹⁷.

¹⁷ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.28.

Ispan inkvizitsiyasi o'zida ham davlat(siyosiy) , ham cherkov politsiyasi rolini umumlashtirgandi. Ispan inkvizitsiyasi shavqatsizligi jixatidan Sharq despotizmini eslatadi, biroq u mamlakatning milliy birligiga erishib, shaharlarning erkinlikarini cheklay olmadi. Bu antimilliy soyosat bo'lib, u insonlarni yagona millat sifatida paydo bo'lishiga asos bo'luvchi umumiy manfaatlar, qarashlar paydo bo'lmasligi uchun hamma narsa qildi¹⁸.

Inkvizitorlar orasida Germaniyadagi Konrad Marburgskiy (1227-yil tayinlanadi) va dominikan Roberto Bugra(1233-yili tayinlangan)ning faoliyatlari ayniqsa mashhurdir. Ularning ikkovi ham tavba qilgan qatarlar bo'lib, o'zlarining sobiq qavmdoshlariga nisbatan shavqatsizliklari bilan tanilganlar. 1239-yili Roberto Bugrening hukmiga asosan Mont-Eme qasrida (Shampän) birdaniga 183 kishi yoqib yuboriladi. Papaning inkvizitorlari dunyoviy hukmdorlar hamda mahalliy cherkov hokimlari bilan yaqin hamkorlikda harakat qilganlar: Konrad Margburskiyni yepiskop Xildesxaym, Roberto Bugrani fransuz qiroli Lyudovik IX Avliyo qo'llab quvvatlaydilar. Aftidan qirolning iltimosi bilan 1239-yili Papa Grigoriy IX uni lavozimidan bo'shatib, qamoq jazosiga hukm qilgan.

1233-yili Papa Grigoriy IX yereslar bilan bog'liq ishlarni taftish qilishni dominikanlarga topshiradi, 1254-yilda esa “ Licet ex omnibus” nomli bulla bilan papa Innokentiy III ordenni dominikanlar va fransiskanlar ordeniga bo'ldi. Ushbu orden azolari o'zlarining kamtarona turmush tarzi bilan yashaganliklari uchun ham xalqning mehrini va ishonchini qozongandilar. Shuning uchun ham bu orden yeretiklarni qidirish uchun mukammal nomzod bo'la olardilar. Xalqning o'zi ularga yordam berardi. Dominikanlar va fransiskanlar yepiskoplik sudlariga teng yurisdiksiya olganliklariga qaramay, mahalliy yepiskoplarning ham yeresga barham berish majburiyati saqlab qolindi, ular inkvizitorlar bilan hamkorlik qilishi va inkvizitsiya chiqargan hukmlarni avvalo qamoq jazosi yoki o'lim jazosiga hukm qilinganlarning hukmlarini ratifikatsiyalashi (tasdiqlashi) lozim bo'lgan. Inkvizitorlarga keng huquqlar berilib, ular na mahalliy cherkov hukumatiga, na

¹⁸ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.53.

papa legatlariga bo'ysunganlar: ular faqat papa oldida javobgar hisoblanishgan. Orden rahbariyati uchun ular inkvizitor emas, rohib sanalgan. Inkvizitorlik huquqlari butun umrga berilgan va XIII asrning oxirlariga kelib inkvizitorlarni lavozimidan olish yoki cherkovdan chetlatish deyarli ilojisiz bo'lib qoladi. Agar monarxlarni, yepiskoplarni yoxud papaning legatlariga doir hukm chiqarilsa, buni faqatgina Rim papasining o'zigina chiqargan¹⁹.

XIII asrning o'rtalariga kelib o'linga hukm qilingan yeretiklarni dunyoviy hukmdorlarga topshirishi, qolganlar esa cherkov tomonidan aniqlangan yeretiklarni butunlay yo'qotishi haqidagi kanonik qonunlar to'liq shakllantiriladi. Agar dunyoviy hukmdor ushbu talablarni bajarishdan bosh tortsa, uni cherkovdan holi deb e'lon qilinib, uning mulkiga interdikt qo'yilgan, qo'l ostidagilarni vassallik qasamyodidan ozod etilgan, yerlari bo'lsa yeretiklarni ta'qib etishga tayyor bo'lgan boshqa birovlariga berilgan. (3-kanon IV Lateran sobori, Grigoriy IX bullasi)

Paduans ediktiga (1224-y) va imperator Fridrix II Shateufenning Sitsiliya, Sevilyada amal qiluvchi Melfiya konstitutsiyasiga asosan yeretiklar gulxanda yoqish uchun mahkum etiladi. Sudning qaroriga asosan ushbu jazo boshqasiga almashtirilishi mumkin (tilini sug'urib olishgan).

Tergov. Inkvizitsiya tergovining asosiy qismlari: qidiruv, chaquv va zimdan berilgan xabardan iborat edi²⁰.

Guvonning ko'rsatmasi qabul qilinmasligiga yagona asos ashaddiy dushmanlik sanalgan, biroq inkvizitsiya gumonlanuvchilarga guvonlarning ismlarini oshkor etish amaliyotini qo'llamasdi²¹. Gumonlanuvchidan unga dushmanlik qilishi mumkin bo'lganlarning ismini so'rashgan, agar shularning ichida guvonning ismi bo'lsa , unda qandaydir umid paydo bo'lishi mumkin edi. Inkvizitor bir paytning o'zida ham qoralovchi, ham sudya vazifasini bajargan. Daxriylikda ayblanganuvchilarga advokat berilmasdi, advokatning o'zini osongina himoyachisiga hamdardlikda yoki sheriklikda ayblab, himoyachisining o'rniga

¹⁹ Аннерс Э. История европейского права / Э. Аннерс. Пер. со шведского. Отв. ред.: Кудров В.М., Машлыкин В.Г.; Пер.: Валинский Р.Л., Волков А.М., Исаев М.А., Шенявская Т.Л. – М.: Наука, 1996. – С.49.

²⁰ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.33.

²¹ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.78.

o'tqazib qo'yishlari mumkin edi. Inkvizitorda o'ziga qo'riqchi va yordamchilarni tayinlash huquqi bor edi. Ular esa cherkovning daxlsizlik huquqidan foydalangan holda insonlarga istagancha tazyiq o'tkazishlari, kamsitishlari mumkin edi. Inkvizitsiya tergovining ajralib turuvchi xususiyati bu uning davomiyligida bo'lib, u ba'zida o'n yillab ham cho'zilib davom etavergan. Ayblanuvchining barcha so'zlari va harakatlari xuddi qoralovchiniki kabi ikki nusxada qayd etib borilgan. Ushbu tadbir daxriylar uchun boshqa davlatda yashirinish imkoniyatini yo'qqa ,chiqaradi. Chunki u qayerga bormasin uning ortidan darrov ushbu nusxa jo'natilgan. Yolg'on guvoxlar ko'pligini tushungan inkvizitsiya quyidagi qoidani joriy etadi: " agar kimdir yolg'on guvoxlikda tutilsa, unga qattiq epitemya qo'yilgan, biroq uning ko'rsatmasi ishdan olinmasligi kerak" bo'lgan.

Har qanday maxbusni oldindanoq aybdor deb hisoblovchi ushbu tizimdan qutulib qolishning yagona yo'li bu birinchi tergovdayoq butun aybni to'la bo'yniga olib qolish edi. Agarda u aybini tan olmay o'zining begunox ekanligida turib olsa, uni ashaddiy daxriy sifatida dunyoviy hokimiyat qo'liga topshirganlar.

Inkvizitorlar o'zlarining ishlarining asosi maqsadi gunoxkorlarning qalbini shaytonning changalidan yulib olish deb bilganlar, bu paytda gunoxkorning jismi qay axvolda bo'ladi, buning ahamiyati bo'lmagan. Algiboyslarga qarshi uyushtirilgan salib yurishlari davomida yana bir yangi qonun o'rnatiladi: bitta daxriyga adolatdan qochishiga imkon bergandan ko'ra, o'nta yaxshi katolikni narigi dunyoga jo'natgan afzalroq"²².

Jazo. Inkvizitsiya odatda 3 xil jazo bergan: epidemya, turmaga qamash va dunyoviy hokimiyat qo'liga topshirish ya'ni bu gulxanda yoqish degani edi. Epitemyada umrbod xoch taqib yurish, muqaddas joylarda ibodat qilish, yaxshi amallar uchun qandaydir qurbonliklar qilish naqzarda tutilgan. Biroq bular epitemyaning faqat eng tarqalgan usullarigina bo'lib, jazo inkvizitorning fantaziyasi bilangina cheklanishi mumkin edi. Qamoq esa tor, diqqinafas xonada, antisanitar sharoitlarda , oyoq va qo'lidan devorga kundalangan holda, faqatgina

²² Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.61.

non va suvda saqlanishini bildirgan. Bunday sharoitda inson o'rtacha 3 yil yashay olgan. Lekin ba'zida amnistiya e'lon qilinib, qamoq jazosi qattiq epitemya bilan almashtirilgan. Dunyoviy hokimiyat qo'liga topshirilishi esa tiriklayin gulxanda yoqish degani edi. Cherkov hattoki marxumlarni ham ta'qib qilishdan voz kechmagan. Allaqachon o'lgan bo'lishiqa qaramay daxriyni gulxanda yoqishga hukm qilingan. Bunda marxumning qoldiqlari qabrdan kavlab olinib, keyin ular yoqilgan, mol-mulki esa musodara etilgan²³.

Tergov usuli. O'rta asrlarda Onde-Vater nomli golland shaharchasida maxsus tarozilar o'rnatib qo'yilgandi. Keyinchalik Kelne, Myunster va Yevropaning boshqa ko'plab shaharlarida ham xuddi shunday tarozilar paydo bo'ladi. Bu tarozilar jodugarlarni tortish uchun ishlatilardi²⁴. Ya'ni, kim sehrgarlikda aybdor deb topilsa uni shu tarozida o'lchab ko'rishgan. Agar uning vazni 50 kgdan ortiq bo'lsa qo'yib yuborishgan; yarim sentnerdan og'irroq ayol supurgi bilan havoga ko'tarila olmaydi deb hisoblashgan. Daxriylikda gumonlanayotganlarni inkvizitsiya binosidagi maxsus kameraga olib kelishgan²⁵. Bu bino rasmiy ravishda "Kaza Santa" ya'ni "Muqaddas palata" deb nomlangan. Ularni hukm qilish uchun bir-birini unchalik rad qilmaydigan 2ta guvoxning o'zi yetarli edi. Qasos olishning oldini olish uchun ularning ismlari oshkor etilmagan. Ayblov yoshi o'g'il bolalar uchun 14 yosh, qiz bolalar uchun 12 yosh bo'lgan. Inkvizitorlar inson ruxiyatiga ta'sir etuvchi hamma vositadan foydalanganlar. Xona odatda qora materiya bilan (zadrapirovana) qoplangan bo'lib, derazalardan yorug'lik tushmagan. Qora duxoba yopilgan stol ustida (raspyatie- xochga tortilgan Isoning tasviri tushirilgan xoch) va 6ta yonib turgan sham, hamda Bibliya turgan. Stol yonidagi kafedrada kotib o'tirib, u gumondorga qo'yilayotgan ayblarni o'qib eshittirgan. Stol atrofida esa monaxlarga xos oq libos va qora qalpoq kiygan inkvizitorlar o'tirgan. Maxkumning ortida uni inkvizitsiya binosiga olib kelgan qo'riqchilar bir qator bo'lib turgan. Katta inkvizitor xuddi stol ustida yotgan qog'ozlarni o'rganish bilan

²³ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.35.

²⁴ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.97.

²⁵ Аннерс Э. История европейского права / Э. Аннерс. Пер. со шведского. Отв. ред.: Кудров В.М., Машлыкин В.Г.; Пер.: Валинский Р.Л., Волков А.М., Исаев М.А., Шеняевская Т.Л. – М.: Наука, 1996. – С.55.

banddek, mahkumga e'tibor bermayotgandek tutgan o'zini. Bu instruksiyaga ko'ra qilinib, maxkumni dovdiratib, qo'rquvini oshirish uchun qilingan. Keyin kotib uning ismi, manzili va shu k. haqida savol bergan, katta inkvizitor esa qog'ozlaridan boshini ko'tarib, gumondordan nima uchun hibsga olishgani haqida bilasizmi deb so'ragan. Bechora qanday gunoxi bor ekanligi haqida gapirsa inkvizitor yana qog'ozlarini o'qishga qaytgan. Keyin undan dushmanlari bormi, yo'qmi, qanchalik tez-tez tavba qilib turadi, qaysi cherkovdan, ruxoniysi kim va qachon so'nggi marta tavba-tazarruda bo'lganligi haqida so'rashadi.

So'roqlardan maqsad maxbusni tavba qilishga majbur etish, shuningdek imkonni boricha uning qarindoshlari hamda tanishlarini ham daxriylikda ayblash edi. Lekin, agar u javob bermay, qaysarlik qilib jim turishda davom etaversa boshqa usul qo'llanilgan. Inkvizitor o'zini xuddi maxbusga raxmi kelayotgandek ko'rsatib, unga yomonlikni ravo ko'rmasligi, unga xuddi adashib qolgan bolaga qaragandek qarashi va uni Haq yo'lga qaytishini tilashini aytgan. Buning uchun tavba qilishi zarurligi va shunda qalbidagi gunoxi yuvilishi, yengillikni his qilishi va cherkovning kechirimi(marxamati)ni olishi mumkinligini aytgan. Lekin chin tavba qiluvchida daxriylikka nisbatan nafrat bo'lishi lozim. Shuning uchun tavba qiluvchi yashirincha gunox qiluvchilarning ismini aytishi kerak. Tavba qiluvchilarga boshqalarga ham tavba qilishlariga imkon berishlari kerak. Bu usul ancha samarali ishlagan. Agar bu yordam bermasa, maxbusni yana inkvizitorlar oldiga chaqirilgan, holdan toyib, charchab, adashib ketmagunicha qaytadan so'roq qilingan. Shunda unga yolg'on gapirayotgani aytilgan va olib ketilgan. Shundan so'ng uni qiynoqlar uchun kameraga jo'natishlari lozim edi.

Torkvemada davridan beri qiynoqlar inkvizitsiyaning faoliyatining muhim qismiga aylandi. Avvallari ular ko'p ishlatilmasdi. Torkvemada tomonidan inkvizitorlar uchun yozilgan qo'llanmaning 15-moddasiga ko'ra inkvizitsiya daxriyning gunoxi "yarim isbotlangan" hisoblangandagina inkvizitorlar qiynoqlarni qo'llash huquqiga ega edi. Qiynoqlar bir necha bosqichga bo'lingan bo'lib, "diyonatli" inkvizitorlar uni "qiynoq" deb emas, balki "so'roq" deb nomlardilar. Tergov bir necha bosqichlardan iborat edi. Birinchi bosqich qiynoqlar

bilan qo'rqitish bo'lgan. Ikkinchi bosqichda qiynoq xonasiga olib kirib, maxbusga qiynoq qurollarini ko'rsatishgan. Bu bosqich judayam muhim sanalgan. Uchinchi bosqich maxbusda yanada ko'proq qo'rquv uyg'otishi kerak edi, unda maxbusni yechintirib, qiynoq uchun tayyorlashgan. To'rtinchi bosqichda unga ishlatilmoqchi bo'lgan qurollar ko'rsatilgan. Agar shundan keyin ham u gunoxini tan olib, tavba qilmasa va sheriklarini kimligini aytmasa, qiynoqlar boshlangan²⁶²⁷.

Qonunga ko'ra qiynoqlarni takrorlash taqiqlangan va birinchi sinovdan keyin o'zining begunoxlida qat'iy turuvchi inson yana sinovdan o'tmasligi kerak bo'lgan²⁸. Shuning uchun inkvizitorlar qonunni aylanib o'tishga harakat qilganlar. Qiynoqni "takrorlab" emas, balki qurbonga faqat nafas rostlashi uchungina qisqa fursatlar berib, qiynoqni iloji boricha ko'proq cho'zishga harakat qilganlar. Inkvizitsiya turmalarida ko'proq "ko'tarma" diba va suv bilan qilinadigan qiynoqlardan foydalanilgan²⁹. "Ko'tarma"da qurbonning qo'llari orqasiga qilib boylangan va blok yordamida uni sekin ko'tarishganki natijada butun tanasining kuchi qo'lga tushgan. Bir necha daqiqadan keyin pastga tushirib tavba qilishni taklif etishgan. Agar u rad etsa, yana ko'tarilgan, agar shundan keyin ham u o'zini aybdor deb tan olmasa, oyoqlariga tosh osishlari mumkin edi. Xushidan ketib qolgan payt esa pastga tushirib, dam berishgan, keyin qiynoqlarni yana davom ettirish uchun. Inkvizitsiya turmalarida suv yordamidagi qiynoqlar ham keng tarqalgandi. Bu holatda qurbonni qiya narvonga shunday bog'langanki u na qo'li na oyog'i bilan qimirlay olgan, og'zini esa majburan ochib turilib mato parchasi bilan berkitishgan. Keyin esa sekin qurbonning og'ziga suv quyishgan. Odam avtomatik ravishda yutigan va tomoqqa suv bilan birga mato ham kirib tiqilib qolgan. Keyin chalajon maxbusga birozdan so'ng hammasini yana takrorlash uchun biroz dam berilgan.

²⁶ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.61.

²⁷ Аннерс Э. История европейского права / Э. Аннерс. Пер. со шведского. Отв. ред.: Кудров В.М., Машлыкин В.Г.; Пер.: Валинский Р.Л., Волков А.М., Исаев М.А., Шенявская Т.Л. – М.: Наука, 1996. – С.57.

²⁸ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.100.

²⁹ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.45.

Odamlarni tiriklayin ko'mish kabi daxshatli qiynoqlarni invizitsiya Niderlandiyada protestant mamlakatni katolikka aylantirish harakatlari chog'ida amalga oshirgan.

Dunyoviy hokimiyat va autodafe. Agar inkvizitsiyaning minglab maxbuslarga munosabati g'azab uyg'otsa, ularga hukm chiqarishi kulgu uyg'otadi. Maxbuslarni qiynovchi ushbu diyonatli cherkovdorlar ularga o'lim jazosini chiqara olmaganlar, chunki, xristian o'zining yaqinini qonini to'kmasligi kerak edi! Shuning uchun inkvizitorlar, qurbonni gulxanda yoqish ishini o'zlarining o'rniga boshqa birov qilishini afzal bilardilar. Ular so'zlarni extiyotkotlik bilan ishlatardilar masalan: "topshirish" yoki "yuborish" so'zining o'rniga "qoldirish" so'zini ishlatishgan. (xuddi shunday qiynoqlar haqida ham "takrorlandi" deb emas, "bo'lindi" deb aytishgan) shunday shaklda ular, hoynaxoy, Xudoni o'zlarining haqliklariga ishontirmoqchi bo'lgan bo'lsalar kerak. So'roq qilinuvchining qo'qqisidan vafot etishi bilan shoshilich ravishda "gunoxlarini avf etilishi" ham xuddi shu maqsadga xizmat qilgan. O'zlarining qotillikda aybdor emasliklarini ko'rsatish maqsadida inkvizitorlar:" Cherkov sizga ortiq yordam berolmaydi. U sizni rad etadi va sizni dunyoviy hokimiyatga qoldiradi va undan sizga nisbatan marxamatli bo'lishini, bir tomchi ham qon to'kmasligini va iloji bo'lsa qatl qilmasligini so'rab qoladi " deyishgan.

Lekin dunyoviy hokimiyat vakillari bu " marxamatli bo'lish" haqidagi so'rovlar shunchaki rasmiyatchilik bo'lib, aslida ulardan butunlay o'zga narsa talab etilayotganini juda tez tushundilar. Daxriylarni dunyoviy hokimiyat qonunga ko'ra qatlga hukm qilishi kerak hisoblashgan. Bu XIII asrdagi Innokentiy IVning bullani qabul qilishidan boshlandi, unga ko'ra dunyoviy hokimiyat vakillari cherkovdan holi deb e'lon qilinishi xavfi tufayli daxriylarni qatl qilishga majbur edilar³⁰.

Daxriylarga hukmni ommaviy ravishda, xalq eng ko'p to'planadigan joyda o'qib eshittirilgan. Ushbu varvarona marosimlar "e'tiqod, yoki din ishi" –"autodafe" (ispan lag'chasida), yoki "autodafe" (Portugal tilida) deb nomlamgan. Uni

³⁰ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.98

yakshanba kuni o'tkazishga harakat qilganlar. Chunki bu kun muqaddas sanalgan va bu kuni qatlni ko'proq odam ko'rishi mumkin edi. Muqaddas cherkovga qarshi chiqqanlar bilan nima bo'lishini odamlarning bilgani foydali deb hisoblashgan. Autodafega oxirat kunining kichik o'xshatmasidek qaralgan³¹.

Inkvizitorlar gunoxlardan ozod etish huquqiga ega bo'lib, shubxasiz, ularning ko'pchiligi o'zlariga kerakli ma'lumotni olish uchun bu huquqdan foydalanardilar. Inkvizitorlar alohida maqomda turganlari uchun ularni faqatgina Rim papasigina cherkovdan chetlatishi mumkin edi. Dunyoviy hokimiyat uchun inkvizitorlar xuddi o'zining xizmatchisidek edi. Shuning uchun ularni himoya qilishga harakat qilgan. Ushbu himoya inkvizitsiyaning qo'l ostida xizmat qilgan—vikariylar, kompanyonlar, familyarlar, notariuslar va boshqa ko'plab inkvizitsiyaning xizmatkorlariga tarqalgan³².

Vikarilar qaysidir ma'noda inkvizitorlarning o'rinbosarlari edi. Vikarilar inkvizitorlar yo'q bo'lishganda, yoki boshqa muhim ish band bilan band bo'lishganida ularni almashtirib turishgan. Bundan tashqari inkvizitorlarning ushbu yordamchilari ularning barcha og'ir ishlarini bajarardilar. Kompanyonlar inkvizitorlarga sayohatlar davomida hamrohlik qilganlar. Ularning aniq doimiy vazifasi bo'lmagan, asosan inkvizitorlarning maslahatchisi rolini bajarganlar. Familyarlar inkvizitorlarga qo'riqchi va politsiyachi sifatida xizmat qilganlar. Ular odatda dindor odamlar bo'lishmasada, lekin yarimdiniy orden hisoblanishgan. Familyarlar ko'pincha turmalarga tashrif buyurib, maxbuslar bilan suhbatlashishar va ularni tavba qilishga ko'ndirish yoki gapirishga majbur qilishga uringanlar. Familyarlarning kelib chiqishi va lavozimga kirgunicha qanday ishlar qilgani hech kimni qiziqtirmagan. Eng asosiysi ular josuslikka qulay edilar. Ular osongina oddiy odamga aylanib, olomonga qo'shilib keta olardilar. Agar inkvizitorlarning o'zlarini hisobga olmaganda, familyarlar yuqoridagilarning ichida eng daxshatliylari edi. Notarius bo'lishni hamma ham xohlayvermasdi, bu lavozim juda ham kamtar bo'lib, buning ustiga ma'lum bir darajadagi bilimni ham talab etardi. Notariuslar

³¹ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.65.

³² Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.47.

so'roq paytidagi hamma savol-javoblarni lotin tilida yozib borishlari kerak edi, bu esa ularga qo'shimcha qiyinchilik tug'dirgan³³.

Ko'pchilikka sudlanuvchilarni "verguensa" (isnod) ga hukm qilingan. Bu jazo o'zini daxriylikda aybdor deb tan olib, cherkov bilan yarashishni xoxlovchilar uchun edi. Ularning hammalari ob-havodan qat'iy nazar, beligacha yechingan holda ko'chalardan o'tishlari kerak edi. Ushbu jarayonning boshida esa familjarlar ketganlar. Har bir tavba qiluvchi qo'lida yoqilmagan shamni ko'tarib olgan, bu inkvizitsiya ramzlariga ko'ra, ushbu baxtsizlar hali "yorug'likka chiqmadilar, yorug'likka erishmadilar" degan ma'noni anglatardi, lekin sham ularga umid borligini bildirib turardi. Cherkov qayta qabul qilganidan so'ng, ularga shamlarni yoqishga ruxsat beriladi. Cherkov eshiklariga yetganda jarayon to'xtagan. Keyin yarim yalang'och erkak va ayollar cherkovga kirishgan, eshik yonida esa ikkita ruxoniy turib olib, ularning peshonasiga yangidan qabul qilinganliklarining belgisi sifatida tavba qiluvchilarning peshonasiga xochning belgisini qo'yishgan.

Cherkovda esa tavba qiluvchilarni inkvizitorlar kutib turishgan, mehrob ostida inkvizitsiyaning emblemasi bo'lgan—yashil xoch osilib turgan. Notarius maxkumlarning ismlarini aytib, ularni qanday jazo kutayotganini e'lon qilgan. Jazoga ko'ra ushbu odamlarning hammasi, ketma-ket olti juma davomida xuddi shunday beligacha yechingan holda, ko'chalardan sazoyi bo'lib o'tishlari lozim edi. Ushbu muddatning oxiriga yetganda esa ular umrbod martabali lavozimni egallash huquqidan, taqinchoqlar taqish va qimmatbaho kiyimlarni kiyish huquqidan maxrum qilinardilar, bundan tashqari, mulklarining beshdan bir qismini inkvizitsiyaga berishlari kerak edi. Ularning hammasiga мрачное оголантириш qilingan³⁴.

"Autodafe" so'zining o'ziyoq odamlarda qo'rquv uyg'otgan, lekin unda qandaydir qora jalb qiluvchi kuch ham bor edi. Ushbu aksiyalar bayram kunlari bo'lib, hattoki mashhur "buqalar jangi"dan ham ko'proq hayajon uyg'otardi. Lekin ayni paytda odamlarga bu oddiygina ko'ngilxushlik emas, diniy marosim

³³ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.101.

³⁴ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.51.

ekanligini bildirib turganlar. Inkvizitorlar bunday kunlari odamlarning qandaydir tarzda bo'lsa ham tartibni buzishlari, ko'ngilxushlikka berilishlarini xohlamasdilar, bu gunox bo'lardi. Shuning uchun autodafe tong payti boshlanib, qorong'u tushishi bilan to'xtatilgan, lekin tunda o'tkazilmagan³⁵.

Autodafe bo'ladigan kundan bir kun oldin maxkum daxriylarni Muqaddas palataga olib kelishgan va ertaga ularga yoqishlarini e'lon qilishgan. "Marxamat" tariqasida har bir mahkumga bittadan ruhoniylar berilgan bo'lib, ular tongga qadar maxkumni tavba qilib hech bo'lmasa qalblarini qutqarib qolishga ko'ndirishlari kerak edi. Ularning jismlari esa gunoxlari uchun yoqib yuborilsada, lekin ular tavba qilsalar, yoqib yuborilishdan oldin bo'g'ib o'ldirishlari mumkin edi.

Kelasi tongda esa barcha maxkumlarni "sanbenito" ga kiyintirilgan holda turmadan olib chiqilgan. Autodafe marosimi boshlangan. Jarayonni qora libos va yashil xoch ko'tarib olgan kishilar guruxi boshqargan. Ularning ortida familiyalar ketgan. Ularning ortidan ruxoniylar ketgan. U qo'lida cherkovning matosi (облатка)(Iso tanasining ramzi) ni olib brogan, va uning yaqinlashishi bilan hamma tiz cho'kishi kerak edi. Keyin yana familiyalar, ularning ortidan esa –maxkum yeretiklar kelgan. Har bir mahkumni so'nggi soatlarda bo'lsa ham qalbini qutqarib qolishga ko'ndirish uchun ikkitadan dominikanlar hamroxlik qilib borganlar. Shunday qilib inkvizitsiya o'zining qanday marhamatlik ekanligini namoyish etishga istagan. Maxkumlardan keyin, Ispaniyadan qochib ketolgan daxriylarning suratini, shuningdek, vafot etganidan keyin ham sud qilingan daxriylarning kavlab olingan tanalarini olib o'tishgan. Hoynayoy namoyishning ushbu qismi eng qorong'u taasurotlarni qoldirgan bo'lsa kerak. Keyinda bayroq ko'tarib olgan inkvizitorlar, ularning ortidan esa—politsiyachilar va inkvizitsiyaning mayda amaldorlari borgan. Jarayonning ikki tarafidan ham bir saf bo'lib, askarlar alebardlar (oybolta—qadimgi urush quroli) borardilar.

Odatga ko'ra autodafe tugatiladigan sobor maydonida o'rindiqlar o'rnatilgan ikkita taxtasupa qurishgan. Ulardan birida maxkumlar o'tirib, ularni

³⁵ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.75.

hamma bemalol ko'ra olishi kerak edi. O'zini yaxshi katolik ekanligini namoyish qilmoqchi bo'lgan har bir inson ularni istalgan tarzda haqorat qilganlar. Maxkumlarning yonida monaxlar o'tirib, ularni tavba qilishga undashni davom ettirganlar. Xuddi shu taxtasupaga marxumlarning tanalari va yoqilishi kerak bo'lgan daxriylarning chuchelalari ham joylashtirilgandi. Ikkinchi taxtasupada esa xoch va mexrob, inkvizitorlar va ularning xizmatkorlari o'tirgan³⁶.

Ruhoniylar ibodat qilib vaz o'qib bo'lganlaridan so'ng, Buyuk inkvizitor tantanali inkvizitsiyaga sodiqlik qasamyodini keltirgan, barcha atrofdagilar ham tiz cho'kkan holda uni takrorlashi kerak edi. Keyin maxkumlarni dunyoviy hokimiyat qo'lga topshirish marosimi ketgan, chunki cherkov o'ziga ta'aluqli barcha ishni qilib bo'lgandi. Ayni paytda eng yengil jazoga tortilganlardan tortib to gulxanda yoqishgacha bo'lgan jazoga tortilgan barcha maxkumlarning gunoxlari va jinoyatlari to'laligicha o'qib chiqilgan. Ruxoniy dunyoviy hokimiyatdan maxkumlarga "shavqatli bo'lish" va qon to'kmaslikni iltimos qilgan. Axir gulxanda yoqishda bir tomchi ham qon to'kilmaydi. Shunda inkvizitorlar ularga hech kim tana qilolmaydi deb hisoblashgan. Ular shunchaki ushbu o'jar daxriylarning qalbini qutqarib qolishdan umidlarini uzishdi. Olomondan ma'qulovchi ovozlari kelib turgan. Autodafe ko'pchilikda ekzaltatsiya (cheksiz shodlik va benihoya shodlik holati, qattiq hayajon) tuyg'usini uyg'otgan, unga esa qo'rquv aralashib ketgan. Monaxlarning qo'shiqlari va qo'ng'iroqlar jarangi bilan davom etgan uzoq marosim odamlarga xuddi hamma narsani yoritgandek gipnotik ta'sir etishi kerak edi³⁷.

Sanbenito , lekin buyuk inkvizitor uning yordamida yeretiklarning azoblanishini yanada kuchaytirish niyatida uni o'zgartiradi. U dag'al sariq matodan tikilgan, plashga o'xshash ko'rinishda bo'lib, qizil xoch tasviri tikib qo'yilgan, yuqorisida boshidan kiyib-yechish uchun teshigi bo'lgan."sanbenito" qilingan gunoxga qarab turlicha bo'lgan va maxkumlar uni ma'lum bir vaqtdagina kiyib yurishlari kerak edi. Ba'zilar uni bayram kunlari va yakshanba kiyib yurish

³⁶ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.78.

³⁷ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.108

majburiy bo'lsa, ba'zilarga esa doimiy kiyib yurish buyurilgandi. Bunday kiyim kiyganlardan odamlar chetroq yurishga harakat qilganlar.

Daxriylikning “yengil gunoxlari”da hukm qilinganlar xochsiz “sanbenito” kiyib yurganlar, bundan sal og'irroq hollarda oldi va orqasiga xochning faqat bitta tayog'ining tasviri tushirilgan, “og'ir ayblov “ holatlarida esa to'liq xoch tasviri bo'lgan. Odatda bu libosni bir necha yil kiyib yurishga hukm qilingan, ba'zida bunga qo'shimcha ravishda ma'lum kunlari savalab turish ham buyurilgan³⁸.

Gulxanda yoqish uchun hukm qilinganlar uchun esa “sanbenito”ning alohida turi mavjud bo'lib, undagi tasvirlar maxkumning qismatini bildirib turgan. Mol-mulki musodara etilib, umrbodlikka mahkum etilganlar oldida ham orqasida ham xoch tasviri bo'lgan libos kiyganlar, shuningdek, mitra (yepiskop va boshqa martabali ruhoniylarning ibodat vaqtida kiyadigan bosh kiyimi)ga o'xshash uzun qalpoqlari ham bo'lgan. takroran qo'lga tushib, takroran daxriylikda ayblanib gulxanda yoqish uchun hukm qilingan, lekin tavba qilganliklari uchun “marxamat”ga erishganlar yoqilishdan oldin bo'g'ib o'ldirilgan—ularga shayton va gulxanning tasviri tushirilgan “sanbenito” kiydirganlar, qizig'i undagi olovning tili pastga qaragandi. Baribir tavba qilmaganlarni esa tiriklayin yoqishga hukm qilingan, ularning “sanbenito”siga ham shaytonlarning va gulxanning tasviri tushirilgan, lekin undagi olovning tili tegapa qarab turgan³⁹.

Musodara. Angliya va Gollandiyada birinchilardan bo'lib sanoat to'ntarishining erishgan davlatlardan biriga aylanishining sabablaridan biri sifatida ushbu davlatlarda Yevropaning boshqa janubiy hududlaridagidek inkvizitsiyaning bunchalik mashxur bo'lmaganligi keltiriladi. Musodaraning o'zi nima? Ko'chmas va boshqa turdagi barcha mulklarning olinishi, barcha shartnomalarning bekor qilinishi, barcha qarzdorlardan ma'lum muddatda qarzlarning qaytarib olinishi edi⁴⁰. Agar marxumga nisbatan ish ochilsa uning merosxorlarining uchinchi avlodigacha mulki musodara etilgan. Bunday choralar esa janubiy Yevropada

³⁸ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.82.

³⁹ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.75.

⁴⁰ Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.111

hududidagi sanoat va savdoni to'la karaxt qilib qo'ygan. Musodara etilgan mulk esa quyidagi tarzda bo'lingan: uchdan bir qismini inkvizitor, uchdan bir qismini dunyoviy hukumat vakili, uchdan bir qismini esa—Muqaddas taxt olgan. Inkvizitor berilgan mablag'ni tergov harajatlari uchun sarflashi kerak edi. Lekin amalda uni o'z bilganicha ishlatgan. Shimoliy Yevropada inkvizitsiyaning qat'iy o'rnasha olmaganining sabablaridan biri, bu yerda daxriylar kam bo'lib, borlari ham qashshoq oilalardan edi. (agar davlat inkvizitsiya joriy etilishining xarajatlarini o'z bo'yniga olsa, u ham musodara vaqtida ma'lum ulushga egalik qilgan)

Yevropa huquqi tizimiga inkvizitsiyaning ta'siri. Avvaliga o'sha paytda mavjud bo'lgan Yevropa huquq tizimi haqida aytib o'tish lozim G'arbiy Rim imperiyasining varvarlar tomonidan vayron etilganidan keyin "Rim huquqi" nomi bilan tanilgan eng mashxur huquq tizimi Yevropa hududida ma'lum muddatga o'z mavjudligini yo'qotdi, ayniqsa g'arbiy Yevropada va u o'z o'rnini Karolinglar imperiyasi uchun xos bo'lgan sirli huquq tizimiga bo'shatib berdi. Karolinglar huquq tizimining Rim huquqidan asosiy farqi bu unda shaharlarning umuman yo'qligi va monarxlar va hukumatning doimiy joylashuvining muqim emasligida edi, Rim uchun xos bo'lgan qat'iy noiblik tizimidan farqli ravishda. Imperator xonadoni yil bo'yi qasrlar, qal'alar va poseleniyalar bo'ylab ko'chib yurardi, aholining ko'pchilik qismi hamon urug'-aymoqchilik odatlari bilan yashardi. Bunday bo'linish natijasida hech kim ajralgan urug'larni birlashtirishga urinmasdi. Har bir odam o'z urug'ining normalari bilan yashardi⁴¹.

Yevropa huquqi shakllanishining keyingi bosqichi faol shaharsozlik qurilishi davrida boshlandi. Yangi communal shakllar yangi qonunlarni talab qilardi. Bu davrda shuningdek katolik cherkov tomonidan yirik feodallar va hukmdorlarni ag'darishi bilan ham xarakterlanadi. Ruhoniylar o'sha davrning ziyoli qatlami sanalganligi uchun ham yangi zamonga mos keluvchi qonunlarni yaratish ularning zimmasiga tushdi ular "kanonik" yoki "kanonlar" nomini oldi. Bu qonunlarning

⁴¹ Болотов В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – С.85.

manbai bo'lib esa : mahalliy odatlar, feodallarning yo'riqnomalari, suborning ma'lum masalalar yuzasidan chiqargan qarorlari xizmat qildi. Vaaqt o'tishi bilan bunday tizim chigalliklarga olib keldi va bu davr Rim huquqining qayta tug'ilishining boshlanishi bilan to'g'ri keldi (Yustinianning kodifikatsiyasi nazarda tutilyapti)

Sirlilik va ma'lumotlarning qat'iy maxfiyligiga asoslangan inkvizitsiya sudi kanonik qonunlarga amal qilardi bu esa unga yanada sirlilik bag'ishlab, qurbonning shundoq ham qiyin axvolini og'irlashtirardi. Inkvizitsiya qonunlarning mos kelmasligi mavjud jamoaviy munosabatlarda jamiyat uchun xavfli bo'lishi mumkinligini ko'rsatib qo'ydi. O'sha paytdagi hukmdorlarda agar shaxs daxlsizligi haqidagi kafillar bo'lganida edi, ular inkvizitsiya otalari qo'lida bunchalik oson o'lja bo'lmasdilar.

Inkviziysiyaning diplomatiya sohasidagi faoliyati. O'rta asrlar davrida dvoryanlar o'z shajaralarini iloji boricha qadimiyroq va shonliroq qilib ko'rsatishga harakat qilishardi. Butun diplomatiya to cherkovning qo'lga o'tmaguncha bunday sharoitda u juda sekin rivojlanishi tabiiy edi. Diniy ordenlarning joriy etilishi bilan muloqot oddiylashdi. Darbadar monaxlar umuman davlat chegaralarini tan olmasdilar. Butun Yevropa provinsiyalar boshchiligidagi provinsiyalarga bo'lingandi. Ushbu provinsiyalarning chegaralari ko'pincha davlat chegaralari bilan mos kelmasdi. Salib yurishlariga o'xshash qiyin davlatlararo tadbirlarni tashkillashtirish ishlari ham cherkov zimmasiga yuklatilgandi⁴².

Inkvizitsiya juda tez xalqaro tashkilotga aylandi, uning monaxlari esa qator yillardan beri Muqaddas taxt nomidan norasmiy elchi rolini bajarardilar. Monaxlarni inkvizitorlarga aylantirib Papa birdaniga bir necha muammolarni hal qildi: katta josuslik tizimini yaratib, reformatorlar va yeretiklar tomonidan keladigan xavfni bartaraf qildi. Inkvizitorlik majburiyatlaridan ozod monaxlar turli hududlardagi inkvizitorlik tashkilotlari bilan aloqani ushlab turardilar. U davlatdan bu davlatga yeres va unga qarshi kurash haqidagi yangi-yangi ma'lumotlarni

⁴² Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – С.118

tashish asnosida ular diplomatiya rivojida rol o'ynadilar. Darbadar monaxlar juda katta obro'ga ega edilar, har xolda paydo bo'lishlarining boshlang'ich bosqichida va bu ularga katta senyorlar o'rtasidagi mojaro va boshqa muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishlariga yordam berardi⁴³.

1.2. Inkvizitsiyaning asosiy tashabbuskorlari faoliyati tarixi (Rim papalari misolida)

Germaniyada inkvizitsiyani Konrad Makburgskiy joriy etilishi uchun ancha harakat qildi. U daxriylarning ashaddiy ta'qibchisi edi va uning bunday xavotirga tushishiga asos bor edi. Chunki Germaniyada o'z fikrida qat'iy tura oladigan, yangi g'oyalarga qiziquvchilarko'p bo'lgan⁴⁴.

1235-yilga kelib daxriylik Germaniyada tez tarqalayotgandi. Shuning uchun papa Konradni mamlakatga yangi inkvizitor etib tayinlaydi. Konrad uchun bu quvonchli xabar edi. Bu vazifada yordamchilik uchun o'ziga Konrad dominikan Dorso va fransiskan Lyutsekolni oladi. Bu odamlar bilinliliklari bilan emas, ashaddiy fanatik ekanliklari bilan ajralib turardilar. Ularning davrida shunchaki noto'g'ri aytilgan so'z yoki gumonlanayotgan odam bilan suxbat ham papa sudi oldida tik turishga asos bo'la olardi⁴⁵.

Konrad ta'qib qanchalik qattiq bo'lsa daxriylikni shunchalik tez tugatish mumkin deb hisoblardi. O'zi ham nemis bo'lishiga qaramay u nemislarni yaxshi tushunmasdi. Nemislar sokin, qat'iy, ko'p gapirishdan ko'ra amalda ko'rsatib berishni afzal ko'ruvchi xalq edi. Yaqinlarining qanday gulxanda yoqilayotganini ko'rib, ularning qalbida yanada ko'proq nafrat uyg'onayotganidi. Tashqaridan qaraganda sokin Germaniyada inkvizitorlardan norozilik kundan-kunga ortib borardi. Bir kuni tunda Konrad Lyutseron bilan birga Marburgdan qaytayotganida g'azablangan olomon ularni o'rab olib o'ldiradi.

Bundan xabar topgan papa Grigoriy g'azab otiga mindi va o'zining sodiq xizmatkorlarining qotillari jazolanishi uchun astoydil harakat qildi. Bu voqea

⁴³ Арну А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – С.74.

⁴⁴ Гергей Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – С.45.

⁴⁵ Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕРРА-Кн. клуб, 2002. – С.39.

inkvizitsiyaga berilgan zarba edi. Inkvizitsiya rasmiy jixatdan faoliyat yuritsada, u endi amalda real kuch bo'lmay qoldi. Bu holatdan norozi bo'lgan papa Urban V (1362-1370-yillar faoliyat yuritgan) Germaniyaga dominikanlarni jo'natdi. Cherkovdan chetlatishlaridan qo'rqqan imperator yangi inkvizitorlarni izzat-hurmat bilan qabul qildi hamda mamlakatda senzuraning joriy etdi. XV-XVI asrlarga kelib inkvizitsiyaning obro'si yana ham tushib ketdi. Bu paytda Iogann Vessel va Martin Lyuter kabi qasoskorlar paydo bo'lishgandi. 1546-yilda Martin Lyuterning vafotidan keyin ham uning targ'iboti davom etaverdi va katolik cherkovining kuchli muxolifatchisiga aylandi. Inkvizitsiya Germaniyada o'zining kuchini yo'qotdi.

Inkvizitsiya Fransiyada. Algiboyslar urushi tufayli inkvizitsiya Fransiyada ancha chuqur ildizlarga ega edi. Biroq shunga qaramay bu yerda papa Grigoriy IXning odami bo'lgan Gilyom Orno paydo bo'lganida uning shavqatsizligi odamlarning g'azabini uyg'otdi va u ham Germaniyadagi Konrad kabi yordamchilari bilan o'ldirildi. Biroq papa Fransiyada inkvizitsiyaning joriy etishga qat'iy qaror qilgandi. Shu tariqa mamlakatda ustunlik uchun qirollar va papalar o'rtasidagi kurash boshlandi⁴⁶.

Filipp IV Chiroyli davrida u o'zining cho'qqisiga erishdi. U o'z qirolligida cherkovning hukmronligini va ta'sirini kamaytirishga harakat qildi. Qirol cherkov qonunlariga o'zgartirish kiritish istagini e'lon qildi va endi papa davlatining dunyoviy ishlariga aralashmasligi kerakligi haqida maktub yozib jo'natdi. Papa Bonifatsiy VIII va Benedikt XI lar vafot etishganidan keyin Filipp Yevropadagi eng qudratli odamga aylandi. Bundan tashqari yangi papa Kliment V Fransiyaga qirol ixtiyoridagi Avinyondagi papalar rezidensiyasiga ko'chirtirdi. 60 yilcha davom etgan bu davrni "Avinyon tutquni" davri deb nomlashadi.

Bundan keyin tez orada Fransuz qirolli papaga so'nggi shart haqida – tampliyerlar ordenini bekor qilish kerakligi haqida xabar qildi. U tampliyerlar katta xazinaga egalik qilishlarini bilardi, qirolning o'zi ham 1206-yilda Parijdagi tartibsizliklar vaqtida tampliyerlar qasrida jon saqlagandi. U olib brogan urushlar

⁴⁶ Гергей Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – С.47.

xazinani qaqshatgandi, tampliyerlarning boyligi esa ahvolni o'nglashi mumkin edi. Filipp Tampliyerlarning jinoyatlari haqida mishmishlarni tarqatadi. O'zini esa xuddi bu haqida hech narsa eshitmagandek tutadi. Ayyor Filipp yana qanchadir payt kutganidan keyin papa bilan ko'rishadi va ikkovlari tampliyerlar haqidagi jiddiy mishmishlarni gaplashishadi, shundan so'ng qirol bu ishni surishtirish kerakligi haqida e'lon qiladi. Ularning aybini isbotlash qiyin bo'lmaydi. Natijada ordenning buyuk magistri va butun Fransiyadagi tampliyerlarning yirik vakillari qamoqqa olinadilar. Fransiyada qiynoq va qatllar boshlanadi.

De Mole va ordenning yana ikki raxbari 1314-yil 11-martda yoqiladilar. Qiynoqlar ostida ular o'z gunoxlarini tan oladilar, biroq qatlga olib borilgan payt o'z guvohliklaridan voz kechadilar. Tampliyerlarning boyligiga intilgan qirol Filipp ayni paytda papalar ustidan fransuz qirollarining hukmronligini ham o'rnatadi.

1334-yil Filipp VI inkvizitsiyaga imtiyozlarni ular fransuz qirolining istagiga bo'ysunishi sharti bilan tasdiqladi. Daxriylar va daxriylikda gumon qilinayotganlar ortidan ayovsiz ta'qib davom etardi. Fransisk I davrida valdenslar bilan qonli to'qnashuvlar bo'ldi, biroq avval ham daxriylarni qatl etishgandi. 1534-1535-yillar Parijda 24 kishini qatl etishgan bo'lsa, boshqalarni bundan yaxshiroq qismat kutib turibdi deb ham bo'lmasdi. Fransiskni o'zini ham dindor deyish qiyin edi. Uning bunday shavqatsizligiga sabab siyosiy qarashlar edi. Fransiskning e'tiborini valdenslarga papa Pavel III qaratadi, natijada ularning ko'pchiligi qamoqqa olinadi va 1536-yil 13-martda yoqiladi⁴⁷.

Biroq valdenslarga bo'lgan munosabat 1572-yil avgustdagi katoliklar tomonidan uyushtirilgan Varfolomey kechasidagi gugenotlar qirg'ini oldida hech narsa emasdi. Bu jinoyat hech qachon unutilmaydi.

Fransiyadagi ushbu ta'qiblar va qatllar jinoyat edi, biroq ular inkvizitsiya tomonidan amalga oshirilmadi. "Olovli palata" (Genrix II huzuridagi maxsus sud) davlat tomonidan joriy etilgandi. Filipp Chiroylining papalar bilan kurashi

⁴⁷ Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕПРА-Кн. клуб, 2002. – С.59.

boshlanganidan beri inkvizitsiyaning Muqaddas palatasi Fransiyada mustahkam pozitsiyalariga ega emasdi⁴⁸.

Inkvizitsiya Italiyada. Inkvizitsiya Italiyada avvaliga katta kuchga ega bo'ldi. Rim va Florensiya uning tayanchiga aylandilar. Bu yerda ham Pyotr Muchenik va Raynerno Sakkoni kabi daxriylarning ta'qibchilari bor edi. Biroq bu yerdagi kurash katolikning sofligi uchun ketmagan. Aslida gibellin va gvelf partiyalari o'rtasidagi kurash edi bu. Gibellinlar Italiyani german imperatorlarining homiyligi ostida bo'lishini istasalar, gvelflar Italiyaning mustaqil bo'lishini va bu yerda papaning ustunligini ta'minlash tarafdori edilar.

Pyotr Muchenik Gvelflarning Florensiyada o'rnatishini uchun yordam berdi, demak, inkvizitsiya u yerda bemalol harakat qila olardi. Lekin u o'z ishiga shunday fanatizm bilan yondoshdiki natijada darg'azab olomon tomonidan o'ldiriladi. Cherkov esa uni inkvizitsiyaning muqaddas avliyosi deb e'lon qiladi. Pyotr Sakkoni qatarlardan bo'lib, hatto ularning yo'l boshchilaridan biriga ham aylanadi. Lekin aytishlaricha Pyotr Muchenikning va'zlarini eshitganidan keyin o'z sektasini tashlab dominikanga aylanadi. Pyotrning izidan borib, u Lombardiyaning inkvizitoriga aylanadi va xuddi shunday mahalliy aholining g'azabini uyg'otadi. Uni o'ldirishmaydi, biroq uni yaxshisi badarg'a qilgan yaxshiroq degan qarorga kelishadi.

Venetsiya shahri o'zida inkvizitsiya joriy etilishiga rozi bo'lmaganligi uchun bu yerga boshqa davlatlardan qochoqlar ko'p kelardi. Tez orada papa bu holatga nuqta qo'yishga qaror qilib inkvizitsiya joriy etmoqchi bo'lganida hukumat u bilan munozaraga bormaslikni afzal bildi. Faqat bu yerda inkvizitsiya shahar qonunlariga bo'ysunardi, musodaradan tushgan mablag'lar ham shahar g'aznasiga kelib tushardi. Bu esa inkvizitorlarning shijoatini jilovlab turardi. Karl Anjuyskiy Neapolni bosib olganidan so'ng bu yerda inkvizitsiyani joriy etgan bo'lsa ham, u papalikka emas davlatga bo'ysunishini bildirib qo'ydi.

Biroq inkvizitsiya Italiyada Fransidagiga qaraganda ancha chuqurroq ildizlarga ega bo'lib, ancha uzoqroq yashadi. Hatto 1448-yili daxriylarga qarshi

⁴⁸ Гергей Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – С.51.

salib yurishlari ham uyushtiriladi. Lekin u muvaffaqiyatga ega bo'lmaydi, valdenslar tog'li hududlarda gullab-yashnayveradilar. Lekin baribir xalqning qarshiligi, Neapol va Venetsiya kabi shaharlar hukumatining pozitsiyalari tufayli Italiyada ham inkvizitsiyaning kuchi zaiflashadi.

Inkvizitsiya Angliyada. Angliyada inkvizitsiyaning faoliyati haqida bor yo'g'i bitta misol mavjud. Kliment V o'z xo'jayini Filipp Chiroylining topshirig'iga tampliyerlarni ta'qib qilishni boshlaganida, uni Yevropaning barcha shaharlariga yoyishni istagandi. 1309-yili Londonda London yepiskopiga Angliyada joylashgan cherkovning barcha ritsarlari qamoqqa olinib, so'roq qilinishlari kerak deyilgan papaning bullasi e'lon qilinadi.

Angliya qiroli Eduard II Filipp Chiroylining kuyovi edi va qaynotasining rayini qaytarishni istamadi. Tampliyerlar qamoqqa olinadi, ularni so'roq qilish uchun esa papaning komissiyasi yetib keladi Angliyaga. Lekin tampliyerlar o'zlarining aybsizliklarida qat'iy turib oladilar. Angliyada bunday vaziyatda qiynoqlar qo'llanmasdi, ularsiz esa ko'p narsaga erisha olishmadi. Papa va qiroldan Eduarddan inkvizitsiyaga yordam berishni talab qilishadi, qiroldan esa ularga rad javobi berishga o'zlik qilib inkvizitorlarga hibsdagilarga cherkov qonunlari bo'yicha munosabatda bo'lishlariga ruxsat beradi. Bu tez natija beradi, tampliyerga qarshi dalillar topilib, sud qilinadilar, lekin bu jarayon Fransiyadagi kabi shavqatsiz ko'rinish olmaydi. Ularni mulklarini musodara qilib, o'zlarini monastirlarga umrbod hibsdan saqlashga hukm qiladilar. Biroq, qiroldan marxamat qilib ularning ta'minoti uchun biroz mablag' ajratib beradi. Mulklarini bo'lsa favoritlar o'rtasida taqsimlanadi. Angliyada inkvizitorlar doim xalqning adovatini his qilib turishadi. Ushbu hol inkvizitsiyaning Angliyadagi faoliyati haqida yagona misoldir. Biroq bu Britaniyada diniy ta'qiblar bolmagan degani emas, shunchaki ular kontinentdagi kabi fanatizm bilan ajralib turmagan⁴⁹.

Inkvizitsiya Portugaliyada. 1581-yili Filipp II Portugaliyani Ispaniyaga qo'shib olganida, albatta, inkvizitsiyaga e'tiborini qaratgandi. U bor hokimiyatni buyuk inkvizitor qo'lida to'planishini istagandi, biroq bunga papa Grigoriy XIII

⁴⁹ Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕПРА-Кн. клуб, 2002. – С.55.

qarshi chiqadi. Shunga qaramay 1581-yildan 1600-yilgacha Portugaliyadagi inkvizitsiyaning faolligi ortadi va bu davr ichida 50ta autodafe amalga oshiriladi. Portugaliyada yashayotgan yaxudiylar boyroq Ispaniyaga ko'chib ketiushga qaror qilishadi. Quvg'indan keyin 1492-yil Xuan II katta to'lov evaziga , faqat vaqtinchaga Portugaliyada yashashga ruxsat bergandi. Ularning ko'pchiligi qolishlariga ruxsat berishlari uchun xristianlikni qabul qilgandilar. Aynan shu odamlar Ispaniyaga qaytib ketishadi. XVI asrning oxiriga kelib 20 yillik Ispan hukmronligigidan keyin Portugaliya juda qashshoqlashib qoladi. Boy savdogarlar Lissabonni tark etishadi, qachonlardir gavjum shahar bo'shab qoladi. Portugal inkvizitsiyasi ispan inkvizitsiyasidan ham ayovsizligi bilan ajralib turadi.

Inkvizitsiya Meksikada. Izabella yangi yerlarni ochilishi uchun homiylik qilayotganida bu katolikni butun dunyoga yoyish uchun ekanligini e'lon qilgandi. Albatta Filipp II ham buvisining ushbu istagini qo'llab-quvvatlaydi. Ispan koloniyalarida inkvizitsiya joriy etilgunga qadar daxriylarni metropoliyaga olib kelish juda qimmatga tushardi. Albatta bu ishlarni koloniyalarni o'zida inkvizitsiyani joriy etib hal etish osonroq va arzonroq edi⁵⁰.

Buni yaxshi tushungan imperator 1519-yili Vest Indiyaga kardinal Adrianni inkvizitor etib tayinlaydi, unga yordamchi etib esa Puerto-Riko yepiskopi va dominikan Pedro de Kordoni beradi. Ularning ortidan esa fransiskanets Martin de Valensia ham ordendendagi og'alarining dyujinasi bilan yo'l oladi. Meksikada sud ishlarini Muqaddas palataning amaldorlari emas, shunchaki cherkov sudlarining vakillari amalga oshirardilar, og'irroq hollarda esa ispan inkvizitsiyasiga maslahat so'rab murojaat etardilar. 1569-yilning boshida bevosita ispan koloniyalarining o'zida avtonom sudlarni joriy etishga qaror qilinadi, bir yildan keyin esa 1570-yil 3-yanvarda doktor Moreyya de Kontreras Meksikaning buyuk inkvizitori etib tayinlanadi. U bu lavozimni xuddi quvg'indek qabul qilib olishni istamaydi, lekin uni bu shunchaki vaqtinchalik lavozim ekanligi va buning mukofotiga uni Meksika arxiyepiskopi unvoni bilan taqdirlashlarini vada qilishadi.

⁵⁰ Гергей Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – С.54.

Va u rozi bo'ladi, uning davomchilariga ham keyinchalik ushbu lavozim uchun xuddi shunday u yoki bu mukofotni vada qilishadi.

Meksikada birinchi autodafe 1574-yil 28-fevralda bo'ladi va u xuddi ispan shaharlaridagi kabi sovuq tantanavorlikda o'tkaziladi. 80ga yaqin odam uning qurboniga aylanishgan bo'lsa, 36tasi protestantlar edi, ingliz dengizchilari ko'pchilikni tashkil qilardi. 1594-yili ushbu tashkilotni boshqargan Alonso de Peralta eng shavqatsiz inkvizitorlardan hisoblanadi. Uning davrida autodafelar ko'payib, odamlarni ko'p gulxanda yoqishga hukm qiladilar.

Inkvizitsiya Peruda. Peruda inkvizitsiya 1570-yil joriy etilib, uning raxbari Servan de Seretsuela edi. 1573-yil 15-noyabrda birinchi autodafe bo'lib o'tadi. Bu boshqa hududlarda ham daxriylik ishlari bilan yepiskoplar shug'ullanardilar. Shuning uchun ham tez orada yepiskoplar va inkvizitorlar o'rtasida kelishmovchiliklar boshlandi: 1584-yil inkvizitor Uola ispan hukumatiga yepiskoplar uning ustidan qirolga qilgan ig'volaridan shikoyat qildi.

Seretuela taniqli emasdi. Perudan doim uning tajribasizligidan shikoyatlar kelardi. 1571-yili uni Antonio de Ul'oa bilan almashtirishadi, tez orada uning axloqsizligi Seretsuelaning tajribasizligidan ham yomonroq ekanligi ayon bo'ldi. Ul'oa Peru inkvizitorlari orasida eng badxulqi bo'lgan bo'lsa ham, uning davomchilari ham fazilatlari bilan ajralib turishmagan. Ularning har biri bu yerda o'zini qiroldek his qilgandan keyin bu tabiiy hol edi.

Ispan koloniyalarida inkvizitsiyani tuzishdan maqsad uning yordamida bu yerga protestantlikning kirib kelishini oldini olish edi. Lekin bu yerda protestantlar oz edi—faqatgina kemalarining halokatga uchrashi yoki asirga tushganlar edi. 1581-va 1587-yillari Yan Bernal va Migel Pilar ismli flomans protestantlar qamoqqa olinadilar. Ular ikkovi ham yoqiladi. Shuningdek 1573-yili protestant Djoan Batista va Mateo Saladalar ham autodafening birinchi qurbonlari bo'lishadi. Biroq 1587-yildan 1625-yilgacha bunday qatllar boshqa kuzatilmaydi⁵¹.

Inkvizitsiyaga ko'proq tashvishni yaxudiyalar keltirishayotgandi. Ularning ko'pchiligi boylik to'plash va Ispaniyadagi ta'qiblardan qutulish uchun

⁵¹ Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕПРА-Кн. клуб, 2002. – С.58.

koloniyalarga qarab yo'l olgandi. Lekin ular inkvizitsiyaning qurboniga aylana boshlashgandi. 1626-yili iudaizmda ayblangan eng katta ish boshlanadi va u 1639-yilgacha davom etadi. Bu ish Portugaliyadan chiqqan jarrox Fransisko de Silvaga ta'luqli edi. Uni qatl etilishining o'ziyoq katta ahamiyatga ega edi, lekin shundan keyin ham uning ta'siri bo'ldi. Shu voqea tufayli ko'plab cho'qintirilgan yaxudiylar avvalgi dinlariga qaytishda ayblanib jabrlandilar.

O'sha paytlari Peruda cho'qintirilgan yaxudiylar ko'p bo'lib ularning faoliyati sezilarli edi. Ular koloniyadagi butun savdoni nazorat qilardilar. Ularning boyligiga bo'lgan hasad natijasida ularga inkvizitsiyaning nigoxi qaratildi. 1636-yili 100ga yaqin odam hibsga olindi. Ularning deyarli barchasi boy odamlar edi.

1560-yillardagi "Saodatli" Mariya Pissaroning ishi ham ancha mashhur bo'lgandi. U arxangel Gavril menga bokira homiladorlikning sirini ochdi deb ta'kidlardi. Uning muxlislari orasida iuzeit missionerlar Portil'yo va Lopes hamda ilohiyot fani professori de la Krus ham bor edi⁵².

Shunday qilib daxriylarning ta'qib etilishining davom ettirilishi Peruning gullab-yashnashiga zarar qildi. 1813-yili inkvizitsiya yopiladi, biroq 1814-yili qayta tiklanadi va 1820-yili butunlay bekor etiladi.

Peruda 250 yil davomida inkvizitsiya tomonidan amalga oshirilgan ishlarning soni bor yo'g'I 3000tani tashkil qiladi. Biroq istalgan odam tunda inkvizitorlarning tungi tashrifidan xavfsirab yashardi.

Inkvizitorlik huquqlari butun umrga berilgan. XIII asrning oxiriga kelib inkvizitorlarni lavozimidan bo'shatish yoki cherkovdan holi deb e'lon qilish umuman ilojisiz bo'lib qoladi. Inkvizitorlar hammani sud qila olishlari mumkin edi, lekin monaxlar, yepiskoplar va papa nunsiyalariga hukmni chiqarish lozim bo'lib qolsa, hukmni faqat papa qabul qila olardi⁵³.

XII asr o'rtalariga kelib, kanonik huquqda qatl hukmining ijrosini amalga oshirish uchun daxriylarni dunyoviy hokimiyat qo'lga topshirish kerak degan qonun to'liq shakllandi. Agar hukmdorlar bunday talabni bajarishdan bosh tortsa,

⁵² Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕПРА-Кн. клуб, 2002. – С.71.

⁵³ Гергей Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – С.57.

uni cherkovdan holi deb e'lon qilib, mulklariga interdikt qo'yilgan, qo'l ostidagilar esa vassalik qasamyodidan ozod etilgan, yerlarini bo'lsa cherkovning talabini so'zsiz bajaradiganlarga berilgan. (3-kanon. IV Lyuteran sobori; Papa Grigoriy IX ning 1231-yil fevraldagi bullasi)

Paduans edikti va (1224-yil) va imperator Fridrix II Shtaufenning Melfiya konstitutsiyasiga asosan Sevilya, Italiya va Sitsiliyada daxriylarni gulxanda yoqishga hukm qilingan. Sudyaning qaroriga asosan bu hukm tilini sug'urib olish bilan almashtirilishi mumkin edi.(Ushbu jazoni yengilrog'iga almashtirish mumkin bo'lmagan) Tez orada ushbu qonun german yerlariga keyin esa Saksoniya va Shvabiyaga ham tarqaladi. 1226-yili Fransuz qirol Lyudovik VIII daxriylarni huquqlaridan maxrum qilib, mulklarini musodara etish haqidagi qarorni imzoladi. 1270-yilga kelib esa gulxanda yoqish asosiy jazo sifatida belgilandi. (Etabliessements de st. Lauis, 1269)

Innokentiy IVning 1252-yil 15-maydagi “Ad extirpanda “ nomli Lombardiya, Trevizo markasi va Romanyaga jo'natgan bullasiga asosan yepiskoplar va orden vakillariga (dominikan ordeni) mahalliy aholi orasidan daxriylikka qarshi kurashish uchun “12ta halol er” (boni viri)ni tanlashni buyuradi. Daxriylik bilan kurashmagan shahar raxbarlari lavozimida qolishi mumkin emas. Shuningdek shahar qonuniga daxriylarga qarshi qonun kiritilsin deb talab qilingandi. (Papa Kliment IV ham 1266-yil xuddi shu talabni takrorlaydi) Bu hujjatga ko'ra yepiskopliklarda muntazam inkvizitsiya tribunallari joriy etiladi degani edi.

Shimoliy Fransiyadagi valdenslarning daxriylikiga qarshi kurashish uchun Dominikan Inkvizitsiyasi joriy etilib, unga keng huquqlar beriladi. Algiboyslar va ularning homiylariga qarshi salib yurishlaridan keyin ularning asosiy markazlari tugatilganidan keyin ham 1209-1244-yillari daxriylarning soni sezilarli kamaygan bo'lsa ham, butunlay tugamagandi⁵⁴.

Langedokda markazi Tuluzada bo'lgan tribunallar tizimi tuziladi. 1307-1327-yillari uni Bernar Gi boshqaradi. U “Daxriylarni qidirish” (Practica inquisitionis

⁵⁴ Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕПРА-Кн. клуб, 2002. – С.86.

heretice pravitatis) nomli qo'llanmaning muallifi edi. Unda o'sha paytda nimalar daxriylik sanalgan, ularni qanday qidirib topish, qanday so'roq qilish va h.k lar haqida ko'rsatmalar berilgan.

Shimoliy Fransiyada dominikanlar inkvizitsiyasining faolligi 1223-yildan boshlanib, uning nomi Roberta Bugre bilan bog'liqdir. Inkvizitsiya yepiskoplarning passiv qarshiligiga uchrasada, lekin farnsuz qiroli Lyudovik IX Avliyoning moddiy yordamidan foydalanardi, avvallo qirollik domeni hududida. XIII asrning o'rtalarida Janubiy va Shimoliy Fransiyada Dominikan Inkvizitsiyasining reorganizatsiyasi o'tkaziladi. Shunday qilib 1266-yilga kelib, barcha inkvizitorlar, Langedokdagi barcha tribunallar dominikan ordenining Parij provinsialiga bo'ysundiriladi. Valdens va katarlardan tashqari fransuz inkvizitsiyasi yaxudiylarni ham ta'qib qilardi.

Oldingi yillardagiga qaraganda daxriylarning soni kamaygani, iqtisodiy yetishmovchilik (daxriylar mulkini musodarasi endi xarajatlarni qoplamay qo'ygandi) va yuz yillik urush (1337-1453-yillar) qiyinchiliklari tufayli. XIV asrning ikkinchi choragidan fransuz inkvizitsiyasining faoliyati ancha sustlashadi. Bundan tashqari “ Papalarning Avinyon tutquni “ (1309-1378- yillar) paytidagi ojizligi va uning ortidan davom etgan Katolik cherkovidagi bo'linish (1378-1417-yillar) dominikan inkvizitsiyasini fransuz tojiga bo'ysunishiga ko'maklashdi: qirollikning mahalliy hokimiyati bilan kelishmovchilik tufayli qirolga yordam so'rab murojat qilishadi va vaqt o'tishi bilan qirolning va parlamentning doimiy ko'magiga muxtoj bo'lib qoladilar. Inkvizitorlarni papa emas, qirolning o'zi tomonidan tayinlangan holatlar ham bo'ladi⁵⁵.

Fransuz inkvizitsiyasi tampliyerlar ishi (1307-1314-yillar) va inglizlarning buyurtmasiga asosan daxriylikda ayblangan Janna D' Ark ishi (1431-yil) kabi yirik siyosiy jarayonlarda qatnashadi.

Shimoliy Italiya (Lombardiya) xususan Milanda katarlarning o'choqlaridan biri joylashgandi; shuningdek valdenslar ham bu yerda keng tarqalgan bo'lib, XIII

⁵⁵ Гергей Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – С.58.

asrning oxiri XIV asrning boshlarida spiritual fransiskanlari ta'siri ostidagi daxriylarning harakatlari ko'payadi.

Italyan davlatining siyosiy tarqoqligi va gvelflar va gibellinlar o'rtasidagi doimiy munozaralar Italiyada daxriylarni muntazam ta'qib qilishga imkon bermasdi. XIII asrning 30-yillarida Papa Grigoriy IX orden vakillariga daxriylarni ta'qib ostiga olish haqida buyruq beradi. Va ba'zi inkvizitorlar o'ta darajada faollik ko'rsatishadi. (masalan 1252-yil Lombardiya inkvizitori Petr Veronskiy azobli o'lim topishi natijasida Rim-katolik cherkovi tomonidan kanonizatsiya qilinadi). 1231-yili imperator Fridrix II Sitsiliyada inkvizitsiyani joriy etadi. 1252-yil Innokentiy IV Italiyaning barcha dunyoviy hukmdorlariga qonunlarga daxriylarni ta'qib qilish haqidagi qonunni kiritishga majbur qildi. (bulla "Ad extirpanda").

Dunyoviy hukumatning daxriylarga qarshi kurashi ustidan nazoratni orden tomonidan nazorat qilishi lozim edi. Yarimorolni ikki orden vakillari o'zaro bo'lib olishadi: Lombardiya va Genuyada inkvizitsiya ishlari bilan dominikanlar, markaziy va janubiy Italiyada fransiskanlar shug'ullanishardi.

1268-yili Qirol Anjuyskiy davrida inkvizitsiya Neopolitan qirolligida, 1288-yili Venetsiyada joriy etiladi. XIV-XV asrlarda Fransiyadagi kabi Italiyada ham inkvizitsiyaning faolligi susayadi. 1343-yildan 1495-yilgacha bo'lgan davrdagi Milan gersoglining ustavida inkvizitsiya biror marta ham eslanmaydi, boshqa ba'zi bir italyan davlatlarida inkvizitsiya to'laligicha dunyoviy hukumatga bo'ysundiriladi. (Venetsiyada, Sitsiliyaning ikkala qirolligida ham)

Innokentiy III – birinchi inkvizitor. Innokentiy III (Innocentius Tertius) (1160-1161-1216-yillar) Rim Papalarining 174-si bo'lib, aynan uning papaligi davrida papalik hokimiyatining qudrati o'zining cho'qqiga yetadi. Uning otasi Trazimondo Konti bo'lib, o'ziga to'q graflar sulolasidan edi. Sen'ilar sulolasidan yana 8 ta papa chiqqan. Papa Klemans III uning amakisi edi. Onasi Klariche Skotti esa Rimning mashhur patriitsylari avlodidan bo'lgan⁵⁶. U Ananidagi Kampanya provinsiyasidagi Gavigano qasrida tug'ilib, shu yerda voyaga yetadi. O'z davrining

⁵⁶ Jane Sayers . 'Inokent III : leader of Evrope 1099-1216.– Londo, 1994. – P.16

eng yaxshi maktablarda ta'lim oladi. Boshlang'ich ta'limni Rimda, ilohiyotshunoslikni Parijda, huquqshunoslikni esa Bolonyada o'rganadi⁵⁷.

Tez orada papa Aleksandr III ning vafotidan keyin (1181-yil 30-avgust) Lotariyo Rimga qaytib turli xil cherkov lavozimlarda ishladi. Bu paytda Lutsiy III, Urban III, Grigoriy VIII va Kliment III lar papalik qilishadi. Kliment III uni 1190-yil sentabrda Rim kordinali etib tayinlaydi .

Kardinal sifatida u “Insonning kambag'alligida” nomli kitob yozadi. Bu kitob asrlar davomida mashhur bo'lib, hozirgacha uning 700 dan ortiq qo'lyozma nusxalari saqlanib qolgan⁵⁸.

1198-yili 8-yanvar kuni papa Silestin III vafot etadi. O'limidan oldin u kordinallar kollegiyasini chaqirib Jovanni Kolonnadan o'zinig vorisi sifatida tanlashlariga chaqiradi .Lekin kordinallar papalik taxtiga o'sha kuniyoq Lotario de Konteni saylashadi. U bu lavozimni ishtiyoqsizlik bilan qabul qiladi va o'ziga papa Innokentiy III nomini oladi. O'sha paytda u bor yo'g'i 37 yoshda edi⁵⁹.

Birinchi oylarda Innokentiy Papa viloyatini tiklash uchun choralar ko'radi. 1187-yildagi Quddusning musulmonlar tomonidan olinishini, u xristian knyazlarining o'jizliklari uchun Xudo tomonidan berilgan jazo deb baholaydi. Shuningdek u cherkovni dunyoviy hukmdorlarning aralashuvidan himoya qilmoqchi edi. U cherkovni erkin bo'lishini istardi. Bu knyazlar endi yepiskoplarning saylanishiga aralashmasliklari lozim degani edi. Bu huquq faqat papaning qo'lida bo'lishi kerak edi⁶⁰.

Innokentiy III davrida Yevropa hukmdorlari, Vizantiya imperatori va pravoslar patriarxlari bilan yozishmalarda papaning ustunligi haqidagi ta'limot shakllangan. Innokentiy III ning pontifikligi hujjatlarida “ Muqaddas Pyotr noibi” unvoni o'rniga “ Masihning noibisi “ qo'yila boshladi, bu papaning diniy hukmdorligi dunyoviy hokimiyatiga nisbatan mavqei balandligini anglatadi.

Xudoning vakili sifatida papa tinchlik va nizolarni tinch yo'l bilan hal etilishini nazorat qilishi lozim edi. Aslida ham u “Tinchlik” g'oyasini targ'ib qildi, lekin bu

⁵⁷ Гергей Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – С.88.

⁵⁸ Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕРРА-Кн. клуб, 2002. – С.86.

⁵⁹ Catholic Encyclopedia: Pope Innocent III. Newadvent.org

⁶⁰ Гергей Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – С.78.

roldagi asosiy urg'u papalikka qaratildi. (masalan, Innokentiy III salibchilarning maqsadi tinchlik va adolatni ta'minlash va mustahkamlash deb hisoblardi) Papalikka berilgan bunday rolning asosini Innokentiy III Muqaddas Bitiklardan topadi. Innokentiy IIIning fikriga ko'ra, Rim Papasi Xudo oldida butun nasroniy dunyosi uchun mas'uldir. Aynan Xudoning so'zlarini buzishda Innokentiy III ko'plab kulfatlarning sababini ko'rgan. Bu avvalo dunyoviy hukmdorlarga ta'luqli edi, ularning gunoxlari ko'pchilikka ta'sir qilgani uchun, oddiy odamlarnikidan og'irroq edi. Grigoryan islohotlarining g'oyalari asosida Innokentiy III dunyoviy hukmdorlar va Rim papasining huquqlarini farqlashga harakat qilgan. Uning fikriga ko'ra, papa, ayniqsa, hukmdorlarning gunohi bo'lgan holatlarda, siyosiy ishlarga aralashishi mumkin edi. Lekin u ayni paytda Rim Cherkovi ham dunyoviy, ham diniy masalalarda butunlay erkin ekanligini ta'kidlaydi. Imperatorlarga toj kiydirish papalarning majburiyatiga kirmasa ham ular bu ishni o'z xohishlariga ko'ra qiladilar⁶¹. "Masixning vikariysi" sifatida u cherkov ustidan cheklanmagan hokimiyatga ega edi.

⁶¹ Григулевич И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕРРА-Кн. клуб, 2002. – С.87.

II BOB. INKVIZITSIYANING ENG MASHHUR QURBONLARI TARIXIDAN(XV –XVIII ASRLARDA)

2.1.Jodugarlikda ayblab yoqib yuborilgan tarixiy shaxslar va davlat arboblari

Siyosiy mojaro va fitnalarning qurboni bo'lgan Janna d'Ark bid'atchi sifatida gulxanda yoqilgan. Janna tirikligidayoq afsonaga aylangandi, o'lgandan keyin esa azizlar qatoriga qo'shildi. Afsonaga ko'ra u yurtini dushmandan qutqarish uchun kelgan qahramon bo'lsa, boshqalarning uni jodugar deb da'vo qilganlar. Jannaning barcha yutuqlari ikki yil ichida – 1429-yil fevralidan 1431-yil mayigacha oraliqni olgan bo'lsa ham, lekin uning shuhrati bugungi kungacha hamon yashaydi.XV asrning noyob shaxsi bo'lgan Orlean qizi batafsil o'rganilib chiqilishiga qaramay, uning tarjimai holining ko'plab tafsilotlari tortishuvlarga sabab bo'lmoqda⁶².

1392-yili Fransiyaning Valualar sulolasidan bo'lgan qirol Karl VI ning aqlidan ozganligi haqidagi xabar hayratda qoldirdi. Uning o'rniga regentlik huquqini ikki gurux arman va burgundlar da'vo qilishi natijasida yuz yillik urushning qoq o'rtasida, bunga fuqarolar urushi ham qo'shildi.

Burgundlar Karl Vning xotini bo'lgan Izabella Bavarskaya va fransuz taxtiga da'vo qilayotgan inglizlar bilan ittifoq tuzadilar. 1420-yili Izabella hushini yo'qotgan erini merosxo'r sifatida o'gli dofin Karlni emas, Angliya qiroli Genrix V ni e'lon qilishga ko'ndiradi. 1420-yil Truada Angliya bilan shartnoma tuziladi. Shartnomaga ko'ra qirol o'z qizini Genrix Vga turmushga berishi va uni o'zining merosxo'ri va regenti deb e'lon qilishi kerak edi.Karl VI tirikligi paytida Genrix Vning o'zi regent bo'lsa, uning vafotidan keyin taxtning o'g'liga me'ros bo'lib o'tishi kerak edi. Mo'maygina mablag' evaziga o'g'li Karlni qirolidan tug'ilgan emas, shuning uchun ham taxtga da'vo qilolmaydi deb ham ma'lum qiladi. Lekin ikki yildan keyin 1422-yili ikkala qirol ham vafot etadi. Endi Fransiyaning boshqa ikkita yosh raqiblar dofin Karl (1403-1461) va Angliya qiroli Genrix VI (1421-

⁶² Гутнова Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – С.147.

1470-71) talasha boshlaydilar. Dofin Karl Trua shartnomasini noqonuniy deb e'lon qilib, o'zini Karl VII nomi bilan qirol deb e'lon qiladi. Genrix VI bor yo'g'I olti oylik edi. Uning nomidan taxtni amakisi gersog Bedford boshqaradi.

Bu paytda inglizlar qiyin ahvolda qolgandilar. Ular bosib olingan hududlarni zo'rg'a ushlab turardilar. Yangi urushlar olib borish uchun esa ularda mablag' yo'q edi. Gersog Bedford buni Fransiyaning hali egallanmagan yerlarini bosib olish orqali hal etmoqchi bo'ldi. Shunday qilib, 1428-yili Orlean inglizlar tomonidan qamal qilindi. Orlean birinchi darajali qal'a edi. Uni olish oson emasdi, lekin agar u olinadigan bo'lsa Fransiyaning janubiga yo'l ochilardi.

Janna d'Ark Lotaringiyaning Domremi qishlog'idan bo'lgan kambag'al dehqonning qizi edi. U 1412-yil 6-yanvarda Jak Dark va Izabella Rote oilasida dunyoga keladi. Jannaning kelib chiqishi haqida turli xil afsonalar yuradi. Ulardan eng mashhuri esa uning kelib chiqishi aslzodaligi haqidagisidir. Telba Karl VIning turmush o'rtog'i bo'lgan Izabella Bavarskayaning 12ta farzandidan so'nggi 8 nafarining otasi qirolning ukasi Lyudovik Orleanskiy edi deyishadi. U 17 yoshidanoq Fransiyaning taqdiri haqida o'ylay boshlaydi. Bizgacha yetib kelgan hikoyalarga ko'ra esa, u 13 yoshidan boshlab "Samoviy ovozlar" ni eshita boshlagan. Bu haqida o'zi shunday eslaydi: "Tangrining ovozini eshita boshlaganimda men 13 yoshda edim. U menga o'zimni qanday tutishim lozimligini o'rgatardi. Birinchi marotaba uni eshitganimda qattiq qo'rqib ketdim. Ovoz kunning yarmida, yozda, otamning bog'ida ekanligimda keldi"⁶³. Ular Fransiyaning bir ayol barbod etishi, bir qiz esa uni qutqarishi haqida aytib, Jannani dofin Karlga yordam berishga undagan. Unga birinchi bo'lib ishongan odam amakisi Dyuran Laksar bo'lgan. U amakisini o'zini Vokuler shaharchasiga olib borib qo'yishiga ko'ndiradi. Aynan mana shu "ovozlar" ta'siri ostida Janna amakisi bilan Vokulyor shaharchasidagi qirol kapitani Bodrikur yoniga keladi va uni bo'lajak qirol huzuriga olib kuzatib qo'yishini so'raydi. Bodrikur Jannaning amakisiga "uni otasining oldiga olib bor, yaxshigina ta'zirini berib qo'ysin

⁶³ Розенталь Н. Жанна д'Арк. Народная героиня Франции. М., 1958 – С.15

“⁶⁴deydi. Oradan sakkiz oy o'tib Janna yana qaytib keladi. Bu paytga kelib Bodrikurning holati ham o'zgargandi. U o'z o'rnini inglizlarning noibiga bo'shatib berishga majbur bo'lgandi. Lekin shunday bo'lsada u Karl bilan yashirin aloqani saqlab qolgandi. Amakisi Laksarning do'stlari bo'lgan izvoshchi Arni Roye va uning xotini Katerina Jannaga yordam berib, uylarida qolishga ruxsat beradilar. Bu yerda u uch hafta yashaydi. Royening uyida yashovchi g'alati qiz haqidagi xabar tez orada tarqalib ketib, Jannani ko'rgani turli tomondan odamlar kela boshlaydi. Janna ularning hammasiga bir xilda “ men bu yerga Bodrikurdan meni dofinning huzuriga eltib qo'yishini yoki menga kuzatuvchilar berishini iltimos qilgani keldim, lekin u menga va mening so'zlarimga e'tibor qilmadi. Zarur paytda men dofinning yonida bo'lishim kerak. Agar buning uchun zarur bo'lsa tizzalab bo'lsa ham boraman. Mendan boshqa hech kim qirol ham, gersog ham Fransiya yordam berolmaydi”⁶⁵ derdi. Odamlar uning ovozlarni eshitishiga ishonmasalar ham, uning so'zlari chin dildan aytilayotgani va Fransiyaning bu axvolda qoldirmasdan biror chora ko'rish kerakligi haqidagi ishonch bilan chiqardilar uning oldidan. Kundan-kun uning tarafdorlari orta boshladi. Inglizlardan nafratlanuvchi Metslik Jan laqabli kambag'al ritsar Jan de Noveloman qizni dofinning huzuriga olib borishga qasam ichadi. Unga do'sti Bertran de Pulanje ham qo'shiladi. Bu paytda Bodrikur ham o'ylab ko'rib, fikrini o'zgartiradi. Bodrikur va uning tarafdorlari Jannaning mashhurligidan foydalanmoqchi bo'ladilar. Bodrikur Karlga maktub yo'llaydi. O'rta asrlarda odamlar g'ayritabiiy belgilarga juda jiddiy munosabatda bo'lishgan⁶⁶.

1429-yil fevralda o'n bir kunlik yo'ldan so'ng Janna Shinonga yetib keladi. Karl ham o'zini uning haloskori deb atayotgan qizni darrov qabul qilmaydi. Bir necha kundan so'ng uni qabul qiladi, Janna Karlga ko'rishi bilan “marxamatli dofin meni Janna deyishadi. Senga Tangimning so'zlarini keltirdim. Senga Reymsda toj kiydiriladi va Xudoning qudrati bilan sen Fransiyaning qiroliga aylanasan” deb,

⁶⁴ Райцес В. И. Жанна д'Арк Л., 1959 – С.52

⁶⁵ Райцес В. И. Жанна д'Арк Л. 1959. – С.53

⁶⁶ Гутнова Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – С.149.

undan shu zaxotiyiq Orleanni qutqarish uchun odam berishini so'raydi.⁶⁷ uchrashuvdan so'ng Puatyega tekshiruvga jo'natadi. Bu yerda ruhoniylar va olimlar 3 haftalik muhokamadan keyin Jannaga ishonish mumkin degan qarorga keladilar. Bu muhokamani haqiqiy inkvizitsiya sudiga qiyoslash mumkin. Jannani rosa so'roq qilishadi. Biroq u o'zining javoblari bilan hakamlarning ishonchini qozonishga muvaffaq bo'ladi. Komissiya shunday xulosaga keldiki: "uning hayoti va o'zini tutishini e'tiborga olib, unda hech qanday yomonlik yo'q va chin e'tiqodida ham zidlik yo'q"⁶⁸.

Shunday qilib, Jannaning harbiy faoliyati boshlanadi. Avvalo u ingliz qiroliga maktub jo'natadi. Ushbu maktubning qanday ohangda yozilgani diqqatga sazovor. " Angliya qiroli, Osmon Hukmdoriga bo'ysuning va u tomonidan yuborilgan qizga Fransiyada bosib olgan va talon-taroj qilgan barcha shonli shaharlarning kalitini qaytib bering. U shu yerda va Xudo tomonidan qirollik qonini ximoya qilish uchun kelgan. U uning haqligini tan olib, Fransiyadan ketishni xohlasangiz, darhol siz bilan sulh tuzishga tayyor"⁶⁹

Keyingi oylarda 1429-yili Janna sezilarli g'alabalarga erisha boshladi. U chindanam mahoratli qo'mondon edi: harhib harakatlar strategiyasini ishlab chiqar, hujumlarda qo'shinga boshchilik qilar, boshqalar qochishga tayyor turganda ham qat'iy turar, buyruqlari bajarilmaganda g'azab otiga minardi. Garchi o'zi jang harakatlari haqida yuzaki ma'lumotga ega bo'lsada.1429-yilning 29-aprelida qo'shinlar bilan birga u qamaldagi Orlean shahriga boradi va birinchi saflarda turib kurashib, Orlean qamalini yorib o'tib, u yerdagilarga qurol-yarog' va yordam bilan ta'minlaydi. Ilohiy haloskor haqidagi mish-mishlar Orleanliklarga kuch va ishonch bag'ishlaydi. Tez orada Janna boshchiligidagi dofinning armiyasi ketma-ket g'alabalarga erisha boshlaydi. Sal keyinroq San-Lu harbiy istehkomi olinadi va Orlean qamali halqasi buziladi. Inglizlarning Orleanga xavf soluvchi keying qal'asi Turel edi. Janna qal'a devoriga Narvon qo'ygan birinchi odam edi, lekin uni yelkasini o'q bilan yaralashadi. Biroz muddat xushsizlikdan keyin uyg'oniboq u

⁶⁷ Райцес В. И. Жанна д'Арк Л. 1959. – С.59

⁶⁸ Райцес В. И. Жанна д'Арк Л. 1959. – С.61

⁶⁹ Перну Р., Клен М.В« Жанна д'Арк» М., 1992 – С. 426

o'ziga qurol berishlarini talab qiladi. Turel ham olinadi. Tez orada dushman so'nggi istehkomini ham tashlab, Orleandan chekinadi. 1429-yilning 8-mayi ozod etilgan Orlean uchun g'alaba va xalq qahramoniga aylanib Orlean qizi nomini olgan Janna d'Ark kuniga aylandi. Hayratlanarlisi 200kun davomida qamal qilingan Orlean Janna kelganidan 10 kun keyin ozod etiladi. Nihoyat 16-iyulda armiya Reymsga kirib keldi, shaharliklar ularga shahar kalitini tantanali qilib topshiradilar. Janna haqida butun Fransiya gapira boshlaydi. 17-iyul kuni Reymsdagi Soborda Karl VIIning toj kiyish marosimi bo'lib o'tadi. Janna bo'lsa qirolning yonida bayroq ko'tarib boradi. Bu Janna shuhratining cho'qqisi edi. Bu haqda tarixchi shunday yozadi: "17-iyul kunidagi marosimda Jannaning tug'i boshqa nomdor aslzodalarning tu'gi bilan bir safda turdi", "qirolning boshiga toj kiydirilganidan so'ng hamma "Noel!" deb baqirdi va trubalar shunday baland ovoz chiqardiki, bu ovozlardan cherkov hozir portlab ketadigandek tuyuldi. Bu paytda Janna qo'lida tug'ini ushlagan holda qirolning yonida turardi". Marosim oxirida Janna yig'lagan holda odatga ko'ra qirolning oyog'ini quchoqlash uchun egildi va unga "Marhamatli qirol, endi Tangrining irodasi amalga oshdi" dedi. "hech kim ularga buyuk hayajonsiz qaray olmasdi"⁷⁰.

Yagona mukofot tariqasida u tug'ilgan qishlog'I Domremeni soliqlardan ozod etishlarini so'raydi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra u vazifasi tugaganligi va uyga qaytishga ruxsat berishlarini ham so'raydi. Ammo ko'pchilik unga qarshi guvohlik beradi. Biroz o'ylagandek keyin Janna Fransiya poytaxti Parijni ozod qilish uchun yurish boshlashni talab qila boshlaydi. 21-iyun kuni armiya Reymsni tark etadi va Parij tomon emas shimolga qarab yuradi; shaharlar birin-ketin qarshiliksiz darvozalarni ocha boshlashadi yoki o'z vakillarini yubora boshlaydilar-Rusi, Vann, Lan, Suasson (23-iyul). Bu yerdan armiya janubga yuradi-Shato-T'yeri (27-iyul), Montmiray (1-avgust), Proven (6-avgust) va yana shimolga qaytadi-Kolom'ye (7-avgust), Laferti-Milon (10-avgust), Krepi-en-Valua (11-avgust)⁷¹.

⁷⁰ Райцес В. И. Жанна д'Арк Л. 1959. – С.65.

⁷¹ Гутнова Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – С.151.

13-avgustda armiya nihoyat Parijga burildi, lekin Dommarten yaqinida dushmanning yirik qo'shini borligini bilib, Krepiga qaytdi. Nihoyat 14-avgust kuni Montepiluada Sanlisdan uncha uzoq bo'lmagan joyda ikki armiya bir-birini ko'ra boshladi. Tarixchilar fransuzlar dushmandan son jixatdan ustun bo'lsalarda, jangga kirishga jur'at eta olishmayotgandi deb yozadilar. Janna ham nima qilishni bilmay ikkilanardi. " Janna ham shu yerda edi, lekin u qarorlarini juda tez o'zgartirardi: ba'zan shiddat bilan jangga intilsa ba'zan aksincha"⁷². " shu kuni tunda bizning odamlarimiz inglizlar lagei yaqinida hujumni boshlaydilar, otishmada ikki tomondan ham ko'pchilik o'ldi va asirlikka olindi: inglizlardan kapitan d'Orbek va yana 10, 12 kishi olindi. Tun kirgach ikki armiya ham o'z lageriga tarqaldi"⁷³. Shato-Renoda gersog bilan 15-kunga tinchlik kelishuvi tuziladi. U Parijni jangsiz berishga rozi bo'ladi, 18-avgustda Karl Kompenga keladi. Yana muzokaralar boshlanadi. Janna Parijni qamal qilishni talab qilishda davom etadi. 23-avgustda qirolning ham roziligini kutmasdan qamalni boshlash uchun yo'lga tushadi. Faqat 7-sentabr kunigina Sen Denida Karl boshchiligidagi armiya unga yetib olib, hujum qilishga ruxsat beradi. 8-sentabr kuni Muqaddas Bibi Maryam bayrami bo'lishiga qaramasdan hujum boshlanadi. Va u muvaffaqiyatsiz tugaydi. Janna qurolbardoridan ayrilib, oyog'idan yaralanadi. " Parij olinmaguncha joyimdan qimirlamayman"⁷⁴- deyishiga qaramasdan uni Sen Deniga ko'chirib o'tqazishadi. 21-sentabr kuni j'yenga yetganda armiya tarqatib yuboriladi. Jannani bo'lsa erkin harakat qilishi uchun yo'l bermay, marhamatga ko'mib saroyda ushlab turishda davom etadilar. 29-oktabrda Jannaga dyu Lis tituli beriladi.

Lekin martning oxiriga kelib Janna chiday olmaydi va o'z hisobidan 200 askarni yollaydi. Akalari va oz sonli o'z tarafdorlari bilan saroyni tark etadi. 29-martda uning bo'linmasi endigina ingliz-burgundlarni haydab yordamga muxtoj bo'lib turgan Milon shahriga o'tlanadi. Aynan mana shu shahar devorlari yonida ovozlar Jannani tez orada asirga tushishi haqida ogoxlantiradilar (iyuldagi Sen Jan bayramiga qadar). Mayning boshida u ingliz-burgundlarning yirik armiyasi

⁷² Райцес В. И. Жанна д'Арк Л. 1959. – С.70.

⁷³ Гутнова Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – С.152.

⁷⁴ Райцес В. И. Жанна д'Арк Л. 1959. – С.72.

Kompen tomon yo'nalganini eshitib, bu haqda qirolga xabar berib, o'zining kichik bo'linmasi bilan yordamga shoshiladi. 17-may kuni Krepi-en-Valua o'rmonida u burgundlarning bo'linmasini yengadi. Bu Jannaning so'nggi muvaffaqiyati edi.

1430-yil 23-mayda Kompen yaqinidagi jangda Janna d'Arkni burgundlar asir oladilar. Janna va Kapitanlar Marin'I keyin esa Klaruaga hujum uyushtirmoqchi bo'lishadi. Oldiniga hammasi yaxshi ketadi va Marin'I egallanadi. Lekin keyin burgundlar birdan qarshi hujumga o'tishadi. Inglizlarning orqadan hujum qilishidan qo'rqqan bo'linma Jannaning baqirishiga qaramay chekina boshlaydi. "Chekinayotganlar zarar ko'rmasligi uchun janna mardonavor kurashadi. Tahlikaga qaramay ko'pchilik kemalarda qochishga muvaffaq bo'ladi. Dushman qurshovida bir o'zi qolgan Jannagina darvozaga yetib borolmaydi va de Lyuksemburgning qandaydir vassal Jannani otdan tortib oladi. Uni ushlaganaridan shunchalik xursand edilarki, xuddi 500ta askarni ushlagandek"⁷⁵.

Odatga ko'ra burgundlar qirolga uni sotib olish uchun qirolga taklif jo'nataidilar. Biroq qirol bu taklifni javobsiz qoldiradi. Inglizlar bo'lsa bajonidil Janna uchun 100000 ekyu to'lashga rozi bo'ladilar. Inglizlarga yetkazilgan mag'lubiyatlar uchun Janna o'z hayoti bilan tovon to'lashi kerak edi. Lekin inglizlar bu ishni o'zlari emas, fransuzlarning qo'li bilan aniqrog'i poraxo'r fransuz ruxoniylari qo'li bilan qilishadi. Cherkovning o'zi ham jodugar bilan hisoblashishni inglizlardan kam xohlamasdi. Janna asirga olinganidan 3 kun keyin Parijdagi inkvizitsiyaning bosh vikariysi dominikan Martin Billorini Burgund gersogiga murojat qilib yozadi: "Haqiqiy katolik sifatida xatolarni tuzatishimiz va dinga qarshi to'polonlarni chek qo'yishimiz kerak. Janna deb nomlangan bir ayolning harakatlari deb ko'plab insonlarning o'limiga sabab bo'lgan qator xatolarga yo'l qo'yildi. Shuning uchun bizga Muqaddas Rim taxti tomonidan berilgan vakolat bilan ko'plab yeretik gunoxlarida gumon qilinayotgan asir Jannani talab etilgan barcha jazolarni qo'llash sharti bilan bizning huzurimizga kuzatib qo'yishingizga chaqiramiz. Parijda berilgan va muqaddas inkvizitsiyaning muxri

⁷⁵ П. Левандовский « Жанна д'Арк» – М., 1982 – С.152

bilan muxrlangan”⁷⁶ Noyabrda burgundlar Jannani inglizlarga topshiradilar. Inglizlar uni o’zlariga qarashli fransuz sudiga topshirish uchun Normandiyaga olib ketadilar.

Ushbu sud tribunaliga Genrix VIning maslahatchisi Pyer Koshon rahbarlik qiladi. Janna advokatlarsiz bir o’zi o’zini –o’zi himoya qiladi.

Jannaning suratlari saqlanib qolmagan bo’lsa ham, uni shunday ta’riflashadi. Baland bo’yli, kelishgan, jismonan baquvvat, qorako’z va judayam chiroyli qiz. Bundan tashqari Janna kuchli iroda va jasorat egasi bo’lib hozirgi til bilan aytganda yuqori intellekt sohibasi edi.

1430-yil mayda Janna kichik otryadini bilan Kompen yaqinida shahar qamalini olish uchun yordamga oshiqayotgandi. Lekin Jannaga hiyonat qilishadi. Ushbu hiyonatkor Kompenning komendanti Gishar Gurnel bo’lib, keyinchalik u o’z qa’lasini ham inglizlarga ochib beradi. Jannani asir olgan burgundlar Jan Lyuksemburgskiyga qarashli Borevuar qal’asiga olib boradilar. Jan esa o’sha davrlar uchun kattagina hisoblangan 10 ming livrga sotib yuboradi.

Janna d’Ark qochib ketishga urinib, minoraning yuqori qavatidan sakraydi. Bunda Jannaning hech qanday zarar olmagan hayratlanarli. 1431-yil yanvarda Ruanda Janna ustidan sud jarayoni boshlanadi. Inkvizitsiya Jannaga 12ta ayblov qo’yadi. Sud jarayoniga Pyer Koshon hakamlik qiladi. Chunki Kompen hududi Koshonning yurisdiksiyasiga kiruvchi Bove shahriga qarardi. Koshon hassoslik bilan o’z vazifalarini bajarishga kirishib ketdi. U 12ta (havoriylar soniga mos ravishda) taniqli havoriylardan iborat inkvizitsiya tribunalini tuzadi. Bundan tashqari ekspert sifatida 16ta ilohiyotshunos doctor va 6ta bakalavrni, Ruan sobori azolarini, 2ta kanonik huquq bo’yicha huquqshunoslarni, Ruan sudining 11 ta huquqshunosini ,xullas ,jami 125 kishini to’playdi⁷⁷.

Jarayonga vakolati Fransiya inkvizitori Jak Grover tomonidan tasdiqlangan Ruanlik inkvizitor dominikan Jan le Metr raislik qiladi. Kamerada Janna bilan kechqurun doimo 3ta ingliz askari bo’lgan. Shuning uchun Janna doim erkaklar

⁷⁶ Jules Quicherat. Process de con damnatoin et de rehabilitation de Jeanne d’Ark, diet la Puccele, t II, Paris, 1841(Кишер Процесс осуждения и реабилитации Жанни д Арк), т. II, – Р. 8

⁷⁷ Гутнова Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – С.157.

libosidan ajralmasdi. Bu ham uning jodugar ekanligini isbotlardi. Uning oldiga ruhoniy Nikola Luazelerni kiritishadi. U o'zini Jannaning Vatandoshi va do'sti sifatida ko'rsatib, Janna bilan ochiq suhbatlar olib borar va inkvizitorlarning savollariga qanday javob berish kerakligini o'rgatardi. Qo'shni xonada esa ularni Koshon va qo'mondon Uorvik eshitib o'tirishardi.

Janna inkvizitorlar tomonidan berilgan ilmoqli savollarga mohirlik bilan javob qaytarib, ularni hayratga solardi.

– “sen o'zingda Xudoning inoyati bor deb o'ylaysanmi?”

– “agar menda uning inoyati bo'lmasa, uni Xudoyim menga yuborsin, gar bo'lsa, unda undan meni maxrum qilmasin”

– “sening qarhingda paydo bo'lganda arxangel Mixail qanday ko'rinishda edi?”

– “men uning nimbasini ko'rmadim va uning qanday kiyinganini bilmayman”

– “u yalang'ochmidi?”

– “sizningcha Tangrimizning uni kiyintirgani narsasi yo'qmi?!”

– “uning sochlari bormidi?”

– “nima uchun uning sochlari olingan bo'lishi kerak?!”⁷⁸

Jannaga nisbatan qiynoqlar qo'llanilmaydi. Chunki Koshon oxir oqibat ayorrone savollar berib, uni adashtirib, uning javoblaridan o'ziga ayblov uchun yetarli material to'playdi. Bu unga bid'atchilikda ayblab, shavqatsiz hukm chiqarishdan oldin qilingan so'nggi shavqat edi.

“sen aytingki agar cherkov sening nazaring bo'yicha Xudoning so'zlariga zid harakat qilishni buyursa, sen bu buyruqqa hech qachon itoat etmayman deb . ushbu band bo'yicha seni cherkovning yakdilligiga raxna soluvchi ashaddiy bid'atchi deb hisoblaymiz”⁷⁹.

Jannaga qo'yilayotgan eng asosiy ayblov bu sehrgarlik va bid'atchilik bo'lib, Jannaning g'alabalarga erishishiga sabab aynan shular ko'rsatiladi. 1430-yilning

⁷⁸ Process de condamnation de Jeanette d'Ark, edited par la Society de l'histoire de France. Text eatable et publierar Pierre tisset. Pris, 1960 (Процесс осуждения Жанни дФрк. Текст, установленный и опубликованный Пьером Тисе), т. I, – P. 169

⁷⁹ Process de condamnation de Jeanette d'Ark, edited par la Society de l'histoire de France. Text eatable et publierar Pierre tisset. Pris, 1960 (Процесс осуждения Жанни дФрк. Текст, установленный и опубликованный Пьером Тисе), т. I, – P. 170

mayida Koshon va le Metr boshchiligidagi inkvizitorlar Jannaga qarshi ayblovni shakllantirdilar. Sud uning farishtalar va avliyolarni ko'rishiga sabab yovuz ruxlar va Iblis tufayli deb e'tirof etdi. Ayblanuvchining muqaddas Mixaildan olgan tojni Karl VII ga topshirgani haqidagi ta'kid o'ylab topilgan quruq gap, maqtanchoqlik deb ataldi. Shuningdek uning ovozlarga qarab begona odamlarni tanishini xurofot va sehrgarlik, kibrlilik va quruq maqtanchoqlik deb topdi. Sud uning erkaklarning kiyimini kiyishi va kalta sochlarini kufrlilikda, muqaddas narsalarni haqorat qilish, ilohiy qonunlar, oyatlar, hukmlarni buzganlikda aybladi. Jannaning maktublaridagi Iso, Bibi Maryam va xoch bilan taxdidlari agar uning maktublariga bo'ysunishmasa, qurol kuchini ko'rsatishi haqidagi sitatalarga javoban sud: "sen qotilsan va qon to'kishni qidirasan; sen isyonchisan va tiraniyaga yetaklaysan; sen Xudoga, uning hukmlariga va vahiylariga kufr keltirasan"⁸⁰ dedi.

Uning o'lim tahdid qilib tursada ta'qiqlarga qaramay qochishini qo'rqqoqlik va o'z joniga suiqasd qilish deb topib bunda ham aybdor deb topdi. Agar u gunoxkor bo'lganda aziz avliyolar uning oldiga kelmasdi degan gapi sud uchun uning "xristian etiqodiga ta'sir qiladigan gumroxlik bilan kasallangan"ining⁸¹ isboti bo'ldi.

Sud ayblov xulosasini e'lon qilish va Jannaga xabar qilishdan oldin uni inglizlar egallagan hududlardagi 58ta ilohiyotshunosga, shuningdek Ruan kapitulatiga va Parij universitetiga tasdiqlash uchun jo'natadi. Barchalari muqaddas tribunal tomonidan Orlean qiziga qarshi tuzilgan ayblovni ma'qullaydilar. Faqat Parij universiteti unga bir eslatmani qo'shib tasdiqlaydi: Jannaga qo'yilgan ayblovlar isbotlangandagina uni haqqoniy deb topishi haqida. Koshon va uning hamkasblari bo'lgan inkvizitorlar esa sudlanuvchining aybini to'la isbotlab berishganiga shubxa qilishmasdi.

1431-yil 23-mayda Jannani tribunalga chaqirishadi, Koshon unga ushbu hujjatlarni o'qib berib, uni o'zini aybdor deb tan olishga ko'ndirishga urinadi. Janna buni rad etadi. Uning ashaddiy bid'atchiligini hisobga olib, tribunal uni

⁸⁰ Райцес В. И. Жанна д'Арк Л. 1959. – С.102.

⁸¹ Гутнова Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – С.152.

cherkovdan ajratish va yoqishga qaror qiladi. Ertasiga 24-may kuni Ruanda yuqori lavozimli cherkov amaldorlari, cardinal Bofor va ingliz amaldorlari ishtirokida autodafe bo'lib o'tadi. Koshon yana unga tribunalning qarorini o'qib beradi va tavba qilishga chaqiradi. Kutilmaganda Janna bir shart bilan tavba qilishga roziligini bildiradi: xattoki kamerada ham unit inch qo'ymagan ingliz askarlaridan qutulib, uni cherkov qamoqxonasiga olib o'tishlari kerak edi. Koshon uning talabini qondirishga vada berib, deyarli kuch bilan uni tavba qilganligi haqidagi hujjatga xoch belgisini (imzoning o'rniga) qo'yishga majbur qiladi. So'ng unga yangi hukm e'lon qilinadi: u bir umrlik qamoq jazosiga hukm qilinadi. Unga faqat non va suv beriladi xolos. Shu bilan autodafe tugadi. Lekin sudlanuvchini vada qilinganidek cherkov qamoqxonasiga olib ketmasdan yana inglizlarga qaytarib berishadi.

Inkvizitorlar Jannaning tavbasini g'alaba deb hisoblab qanchalik xursand bo'lishayotgan bo'lsa, inglizlar bundan yakundan shunchalik norozi edi. Ingliz askarlarining nazorati ostida, qamoqxonada bo'lsa ham tirik ekan Janna fransuz tojiga da'vo qiluvchi inglizlar uchun katta xavf tug'dirardi. Uni qatl etishlaridan kamiga ko'nmaslik Koshonga darxol ma'lum qiladilar. Voqealarning keying jarayoni inkvizitorlarning o'z homiylari talabini quvvatlaganligini ko'rsatib turadi. Avliyooatalar Jannani gunoxlari uchun og'ir jazolar bilan qo'rqitishda davom etadilar. Ular Jannani libosini almashtirib, ayollar kiyimini kiyib olishga ko'ndiradilar. Qiziq tomoni uning erkakcha liboslari ham kamerada qoldiriladi. 1450-yili Jannaning ishini qayta ko'rib chiqilayotganda guvoxlik bergan dominikan monaxi Martin Lavenyuning so'zlariga ko'ra, autodafedan keyin ingliz soldatlari Jannaga yegajog'lik qilmoqchi bo'lishadi. Shuning uchun u yana erkaklar libosini kiyib olishga majbur bo'ladi. Lavenyu o'sha paytlari Jannaning tavba qiluvchi ruhoniysi bo'lgan.

28-may kuni inkvizitorlar Jannaning yoniga qamoqxonaga qaytib kelishganida Janna ularga :” Men Xudoga qarshi yoki e'tiqodimga qarshi hech qanday gunox sodir etmadim. Agar siz istasangiz men yana ayollarning libosini

kiyib yuraman, lekin boshqa narsalarda men yana avvalgidek qolaveraman”⁸² deydi. “Bunday so’zlar o’lim olib kelardi”⁸³.

Koshon Jannaga “ biz bundan kerakli xulosalarni qilamiz” ⁸⁴deb tahdid qiladi. Qanday xulosa chiqishi esa oldindan ma’lum edi.

Sud Jannani qayta bid’atchilikka qaytgan deb topib, uni cherkovdan ajratib dunyoviy hukumat qo’liga topshirish kerak degan qarorga keladi. Hukm ijrosi uchun hamma narsa oldindan tayyor edi. Hukmni ijro etishdan oldin Koshon odatga ko’ra dunyoviy hukumatdan ayblanuvchining qonini to’kmasdan, hayotini saqlab qolishlarini iltimos qiladi. Biroq bunday iltimoslar heh qachon e’tiborga olinmasligi ma’lum edi.⁸⁵1431-yil 30-mayda Ruandagi bozor maydonida hukm ijro etiladi. Uning sanbenitosiga “Bid’atchi, butparast” deb yozib qo’yilgandi.

Jannaning vafot etganidan keyingina Fransiya uning uning bevaqt o’limidan01 afsuslanadi. Oddiy xalq esa uni xalq qahramoni deb bilib, uning haqq iga duo qilardi. 1436-yili Jannaning yana bir bashorati amalga oshadi, Karl VII triumf bilan dushmandan ozod etilgan Parijga kirib boradi. Ko’pchilik Jannani farishtalar qutqarib qolgan, gulxanda esa hoynahoy, boshqa birov kuyib ketgan degan fikrga hamon ishonadi.

Jannani emas, balki boshqa unga o’xshash qizni gulxanda yoqilgani, Janna esa Margarita de Shampdiver nomi bilan yashab, turmushga chiqqani haqida xalq orasida afsonalar yuradi.

Jannaning vafotidan keyin oradan chorak asr o’tib, 1455-1456-yillari Burje shahrida Jannaning reabilitatsiya jarayoni bo’lib o’tadi. Sudda ko’pchilik (100 dan ortiq kishi) Jannaning foydasiga guvoxlik beradilar. Ularning orasida 1429-yili uni qirol saroyiga kuzatib borgan ritsarlar 63 yoshli Bertran de Pulanji va qirolning qurolbardori ham bor edilar.

1456-yili Karl VI Jannaning reabilitatsiyasi jarayonini boshlaydi va uni “ begunox” deb e’lon qiladi. Shundan buyon Janna haqidagi afsona va haqiqatlar

⁸² Process de condemnation de Jeanette d’Ark, edited pair la Society de l’histoire de France. Text eatable et publierar Pierre tisset. Pris, 1960 (Процесс осуждения Жанни д’Фрк. Текст, установленный и опубликованный Пьером Тисе), т. I, – Р. 171

⁸³ Райцес В. И. Жанна д’Арк Л. 1959. – С.53

⁸⁴ Гутнова Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – С.159.

⁸⁵ Ж. Мишле Жанна д’Арк П.,1920. – С 165

o'zaro aralashib ketadi. Karl VIIning yilnomalarida Jannani haloskor, burgund va inglizlar nazarida esa shaytonning xizmatchisi sifatida tasvirlanadi. U haqida buyuk ayollarga bag'ishlangan kitoblarda yozishadi. Lekin ulardan qaysi biri haqiqat, qaysi biri uydirma ekanligini aniqlashning iloji yo'q. Xuddi shunday 1570-yili chiqqan Jirar dyu Ayanning "Fransiya tarixi"da Jannani ritsar sifatida bergan bo'lsa, Shekspir "Genrix VI" dramasida uni Karl VII ning sevgilisi sifatida tasvirlaydi.

2.2. Cherkov va ilm kurashi: cherkovning ilm-fan namoyondalari ustidan amalga oshirgan jinoiy harakatlari tarixi

Buyuk italyan astronomi, fizigi, mexanigi, faylasuf va matematigi,"U baribir aylanadi!"-degan afsonaviy jumlaning muallifi, mashxur olim Galileo Galiley 1564-yilning 15-fevralida Pizo nomli italyan shahridagi anchagina kambag'allashib qolgan dvoryan Vinchenso Galiley xonadonida tug'iladi. Vinchenso musiqa sohasida ko'zga ko'ringan teoretik edi⁸⁶. Shunga qaramay u oilasini boqish uchun movut sotish bilan shug'ullanardi. Galileyning to'liq ismi Galileo di Vinchenso Bonayuti de Galiley bo'lib, Galileylar sulolasining avvalgi vakillari orasida Florentino Respublikasi hukumatining a'zolari bo'lishgan. Galileyning bobosi esa mashxur shifokor bo'lib, uni 1445-yili respublika rahbarligiga saylashadi. Uning ismi ham Galiley edi. Oiladagi oltita farzanddan faqat to'rttasi tirik qolgan bo'lib, ularning eng kattasi Galiley, Virjiniya, Liviya va kenja o'g'il Mikelanjelo. Mikelanjela ham keyinchalik kompozitor sifatida nom qozonadi. 1572-yili Vinchenso Toskan gersogligining poytaxti bo'lgan Florensiyaga ko'chib o'tadi. Bu yerda san'at va fan homiylari bo'lgan Medichilar sulolasi hukmronlik qilardi.

Galileyning ham yoshligidan san'atga ixlosmand bo'lganligi ma'lum. Musiqa va rassomchilikni mukammal egallagan Galiley butun umr ularga oshno bo'lib qoladi. Florensiyaning taniqli rassomlaridan bo'lgan—Chigoli, Bronzino

⁸⁶ Предтеченский Е. А. Коперник, Галилей, Кеплер, Лаплас и Эйлер, Кетле. Биографические повествования.— Челябинск : Урал, 1997. — С 21

kabi rassomlar perspektiva va kompozitsiya masalalarida Galileydan maslahat olardilar. Chigoli bo'lsa o'z mashxurligi uchun Galileydan qarzdorligini ta'kidlardi⁸⁷. Galileyning yozganlariga qarab esa unda adabiy iqtidor bo'lganligini ham sezish mumkin.

Boshlang'ich ta'limni u Vallombroze monastirida oladi. U o'qishni judayam yaxshi ko'rganidan, natijada, sinfnig eng a'lochisiga aylanadi. U ruhoniy ham bo'lmoqchi bo'ladi. Lekin bunga otasi qarshi chiqadi. 1581-yili 17 yoshga to'lganida otasining maslahati bilan Piza universitetiga tibbiyotni o'rganish uchun o'qishga kiradi. Universitetda u Ostilio Richchinining geometriyadan leksiylariga qatnay boshlaydi (avvallari u matematikadan xabaridor emasdi) va bu fanga shunchalik qiziqib ketadiki, otasi uning bu qiziqishi tibbiyotni o'rganishi uchun xalaqit bermasmikin deb xavotirga ham tushib qoladi⁸⁸. Aynan mana shu yerda o'tgan uch yil davomida u antik faylasuflar va matematiklarning ijodi bilan tanishadi. Kopernik ta'limoti bilan ham hoynahoy shu davrda tanishgan bo'lishi kerak. Chunki o'shanda yangi kalendar islohoti tufayli astronomik muammolarni muhokama qilish urf bo'lgandi. Vinchensoning moliyaviy ahvoli og'irlashib, Galileyning o'qishini to'lay olmay qoladi. Galileyning o'qishini to'lovsiz davom ettirishini so'rab qilingan iltimos esa (bunday istisno faqat eng iqtidorli talabalarga qilingan) rad etiladi. Shunday qilib ilmiy daraja ololmagan Galiley 1585-yili uyga Florensiyaga qaytadi. Shunga qaramay u gidrostatik tarozi kabi o'z ixtirolari bilan nazarga tushishga ulgurgandi. Mana shuning orqasidan u fanning havaskori bo'lgan boy va o'qimishli markiz Gvidobaldo del Monte bilan tanishadi. Yosh Galileyning iqtidoriga qoyil qolgan markiz uning do'sti va homiysiga aylanadi. Va uni Toskan gersogi Ferdinand I Medichiga tanishtirib, uning uchun haq to'lanadigan ilmiy lavozim beishlarini iltimos qiladi.

Shunday qilib, u 1589-yili Piza universitetiga endi matematika professori sifatida qaytadi. Bu yerda matematika mexanikadan mustaqil izlanishlarni olib

⁸⁷ Кузнецов Б.Г. Галилео Галилей.— М.: Наука, 1964. — С 24

⁸⁸ Предтеченский Е. А. Коперник, Галилей, Кеплер, Лаплас и Эйлер, Кетле. Биографические повествования.— Челябинск : Урал, 1997—С 23

borishni boshlaydi. Faqat bu yerda tibbiyot professori 2000 skudo olgan paytda, u yiliga 60 skudo bilan cheklanardi. 1590-yili u “Harakat haqida” traktat yozadi.

1591-yili otasi vafot etganligi tufayli oilaning bor mas’uliyati Galileyning yelkasiga o’tadi. Birinchi navbatda u kichik ukasining tarbiyasiga g’amxo’rlik qilishi va ikkita singlisining sepi haqida qayg’urishi kerak edi.

1592-yili u Venetsiyadagi boy va nufuzli Paduans universitetidan joy oladi. Bu yerda u matematika, mexanika va astronomiyadan dars beradi. Ushbu tavsifnomaga qarab, bu yillari Galileyning ilmiy doiradagi nufuzi baland bo’lganligini taxmin qilish mumkin. “ Matematik bilimlarning qanchalik chuqurligini va uning boshqa asosiy fanlar uchun ham qanchalik muhim ekanligini anglanimiz uchun ham biz bu lavozimga munosib kandidat topilmaguncha shoshilmadik. Ayni damda ushbu lavozimda Pizaning sobiq professori, matematik fanlarda eng yetakchi sifatida tanilgan sinyor Galiley ishlash istagini bildirdi. Shuning uchun biz mamnuniyat bilan matematika kafedrasini yiliga 180 florin bilan to’rt yilga unga taqdim etamiz”⁸⁹.

Paduadagi yillar Galiley ilmiy faoliyatining eng maxsuldor davri hisoblanadi. Tez orada u Paduadagi eng mashxur professorga aylanadi. Talabalar uning leksiylariga oqib kelardi, Venetsian hukumati bo’lsa tinimsiz unga turli xildagi texnik qurilmalarni ishlab chiqishni buyurar, yosh Kepler kabi fan yulduzlari u bilan faol yozishmalar olib borishardi. Shu yillari yozgan “Mexanika” nomli traktati shunchalik qiziqarli chiqqani uchun fransuz tilida qayta nashr etiladi. Ilk ishlarida Galiley mayatnikning harakati va jismlarning tushishi haqidagi dastlabki g’oyalarni beradi. 1604-yili Galiley haqida inkvizitsiyaga xabar kelib tushadi, uni astrologiya bilan shug’ullanish va ta’qiqlangan adabiyotlarni o’qishda ayblashadi. Paduans inkvizitori Chezare Lippi Galileyni yoqtirardi, shuning uchun xabarni e’tiborsiz qoldiradi⁹⁰. Uning tadqiqotlarida yangi bosqichning paydo bo’lishiga 1604-yili hozirda Keoler nomi bilan ataluvchi yangi yulduzning paydo bo’lishi sabab bo’ladi. Bu hodisa astronomiyaga bo’lgan yangi qiziqishni

⁸⁹ Басев К. Л. Галилей. Создатели новой астрономии— М.:Госпедиздат РСФСР, 1955— С 95-96

⁹⁰ Дмитриев И. С. Упрямый Галилей.— М.: Новое Литературное Обозрение, 2015.— С 58

uyg'onishishiga sabab bo'lgandi. Galiley ham shu yillari astronimiyadan hususiy ma'ruzalar o'qiydi. Gollandiyada yangi ko'ruvchi moslamaning ixtiro qilingani haqidagi xabarni eshitgach, Galiley ham 1609-yili o'zi ham shunday moslama—teleskopni yasab ko'rib, u bilan osmonni kuzatadi. Uning teleskopi narsalarni 30 marotaba kattalashtirib ko'rsatib berardi. Galileyning ko'rganlari shu qadar g'ayritabiiy ediki, ko'p yillardan keyin ham uning kashfiyoti yolg'on, illuziya deganlar ko'p topiladi. O'z kuzatishlari natijasida Galiley oy ham yerga o'xshashligini, unda ham tog'lar borligini, Somon yo'linining alohida yulduzlardan iboratligini, Yupiterning to'rtta yo'ldoshi borligini (1610-yili) kashf etadi. Ushbu to'rtta yo'ldoshni o'zining marhum homiysi Ferdinand Medichining o'g'illari sharafiga “Medichilar yulduzlari” nomi bilan ataydi. Hozir esa ularni “Galiley yo'ldoshlari” deyishadi. Teleskop orqali qilgan ushbu yangiliklarini u 1610-yili Florensiyada chiqqan “Yulduzlar axboroti” da e'lon qiladi. Kitob shu darajada muvaffaqiyat qozonadiki, hatto tojdor zotlar ham o'zlariga teleskop buyurtma qila boshlashadi. Bir nechta teleskopni u Venetsiya senatiga taqdim etadi, ular esa minnatdorchilik tariqasida uni yiliga 1000 florin bilan bir umrlik professorlik lavozimini taqdim etishadi. 1610-yilning sentabrida Kepler ham teleskopli bo'ladi. Dekabrda bo'lsa Galileyning kashfiyotlari e'tiborli Rim astronomi Klavius tomonidan tasdiqlanadi. Galiley Yevropaning eng mashxur olimiga aylanadi. Uni sharafiga asarlar yozib, Kolumb bilan taqqoslashadi. Fransuz qiroli Genrix IV vafotidan biroz oldin Galileydan uning nomiga ham biror-bir yulduzni kashf etishni iltimos qiladi⁹¹. Biroq norozilar ham bor edi. Masalan astronom Franchesko Sitsi pamflet yozib unda “7 mukammal raqam, insonning boshida ham yettita teshik bor, demak shuning uchun sayyoralar ham bor yo'g'I yettita bo'lishi mumkin, Galileyning kashfiyoti esa shunchaki illuziya”⁹² deb e'lon qiladi. Paduans professori Chezare Kremonini va chex astronomi Martin Xorki ham Francheskoning fikrini ma'qullaydilar.

⁹¹ Гиндикин С. Г. Рассказы о физиках и математиках.— М.: МЦНМО, 2001. С-75

⁹² Басев К. Л. Создатели новой астрономии— М.: Госпедиздат РСФСР, 1955. С-108

Ushbu yillari Galiley venetsiyalik Marina Gamba (1570-1612) bilan turmush quradi. Ular o'g'il va ikki qiz farzand ko'rishadi. O'g'liga otasining sharafiga Vinchenso, qizlariga esa opalari Virjiniya va Liviyaning ismlarini berishadi. Pulga bo'lgan muxtojlik tufayli 1610-yili Galiley unga inkvizitsiyaning qo'li yetolmaydigan sokin Venatsiyani tashlab, Florensiyaga ko'chib o'tadi. Ferdinand I ning o'g'li gersog Kozimo II Medichi unga Toskan saroyida ancha daromadli lavozimni taklif qiladi. Ikkita opasini turmushga berganidan so'ng u anchagina qarzдор bo'lib qolgandi. Ushbu lavozim esa unga ulardan qutulish imkonini berdi. Saroydagi ish Galiley uchun ancha yengil edi. U gersogning ikki o'g'liga ta'lim berish va bazi masalalarda gersogning maslahatchisi va vakili sifatida ishtirok etish. Rasmiy jihatdan u Piza universiteti professori ham edi, lekin uni ma'ruza o'qishdek toliqtiruvchi vazifadan ozod etilgandi.

U o'z izlanishlarini davom ettirib, Venera sayyorasining fazalarini, Quyoshdagi dog'larni va Quyoshning o'qi atrofida aylanishini kashf qiladi. Galileyning atrofida gilardan farqli mustaqil fikrlashga intilishi va shuhratining oshishi, ayniqsa Aristotel ta'limotiga keskin qarshi chiqishi bir qancha professorlar va cherkov vakillaridan iborat unga qarshi bo'lganlarning guruxini shakllanishiga sabab bo'ladi. Ularni ayniqsa Galileyning geliosentrizm nazariyasini targ'ib qilishi g'ashiga tegardi. Ularning fikricha Yerning aylanishi g'oyasi Psalma matnlariga, "Isus Navin kitobi"dagi Yerning harakatsizligi va Quyoshning harakati haqidagi so'zlarga qarshi chiqardi. Bundan tashqari Yerning harakatsizligi Aristotelning "Osmon haqida" kitobida va Ptolomeyning "Almagista" sida to'liq isbotlab berilgandi.

1611-yili o'z shuxratining cho'qqisi paytida Galiley Rimga o'tlanadi. Bu yerda u Papani katoliklik va koperniklikni birga yashay olishiga ko'ndirmoqchi edi. Uni yaxshi kutib olishadi va hatto "Dei Linchei akademiyasi"ning oltinchi azosi sifatida saylashadi. Bu yerda u Papa Urban V va bir qancha nufuzli kardinallar bilan tanishadi. Galiley ularga o'z teleskopini namoyish qiladi. Kardinallar uni so'roq-savol qilish uchun butun boshli komissiya tuzishib,

osmonga teleskop orqali qarash gunox emasmi deya munozara qilishadi va bu gunox emas degan qarorga kelishadi.

Bunday ijobiy natijalardan dadillangan Galiley o'z shogirdi abbat Kastelliga yozgan maktubida (1613-yil)" Muqaddas Bitiklar ilmiy masalalarni hal qilishda emas, faqatgina qalbni qutqarib qolish masalalariga aloqador. Bitiklarning birorta kalimasi ham tabiat hodisalari kabi ta'sir qiluvchi kuchga ega emas"⁹³,deb yozadi. Bundan tashqari bu maktubni bosib ham chiqartiradi. Tabiiyki bu xabar inkvizitsiyaga darxol yetib boradi. Shu yiliyoq (1613-yil) koperniklik ta'limotini ochiqchasiga ma'qullangan "Quyoshdagi dog'lar haqida maktub" kitobini nashr ettiradi. Shu tariqa inkvizitsiya bid'atchilikda ayblab 1615-yilning 25-fevralida Galileyga nisbatan birinchi marta ish ochadi. Rimni koperniklik borasida so'nggi xulosasini aytishga undashi Galileyning so'nggi xatosi bo'ldi. Faqat ruhoniylar orasida nufuzli tanishlarining borligi va uning o'z so'zlarini inkor etishga tayyorligi jiddiy jazodan asrab qoladi. Lekin Galileyning shundan keyin ham yana o'z g'oyalarini ma'qullashga urinishi unga nisbatan yana inkvizitsiya ishi ochilishiga sabab bo'ladi.

69 yoshli fizik va astronom olim Galileo Galiley ustidan ikkinchi sud jarayoni 1633-yili Rimda o'tkaziladi. Galileyni 1616-yili katolik cherkovi tomonidan ta'qiqlangan Nikolay Kopernikning geliosentirizm nazariyasi ta'limotini qo'llab-quvvatlashda ayblashadi. Jarayon natijasida uning o'z so'zlaridan qaytib tavba qilishga rozi ekanligiga qaramay uni bir umrlik qamoq jazosiga hukm qiladilar. Keyinchalik bu jazoni inkvizitsiya nazorati ostidagi uy qamog'iga almashtiradilar.

Galiley ishi oqibat tarixda fan va dinning kurashi timsoli bo'lib qoldi.Galileo yoshligidanoq Kopernikning kiobi bilan tanishib chiqqan va dunyoning geliosentrik modelining tarafdoriga aylangandi⁹⁴.1615-yil 25-fevraldayoq Rim inkvizitsiyasiga Galiley haqidagi xabarlar yetib kelgandi. Galileyga nisbatan bid'atchilikda ayblangan irinchi ish o'shanda ochilgandi⁹⁵. Galileo darxol o'ziga

⁹³ Гиндикин С. Г. Рассказы о физиках и математиках. М.: МЦНМО, 2001. С– 82

⁹⁴ Антисери Д. Реале Дж. Западная философия от истоков до наших дней. П.,2002 С- 206

⁹⁵ Шмутцер Э., Шютц В. Галилео Галилей.– М.: Мир, 1987 С-117

qo'yilgan yolg'on ayblovni oqlash uchun Rimga boradi. Bu Galileyning xatosi edi. Uning bu xarakati aks ta'sirga olib keladi. Reformatsiyaning yutuqlaridan xavotirlangan katolik cherkovi o'z diniy monopoliyasini koperniklikni ta'qiqlab mustahkamlamoqchi edi. Cherkovning o'sha paytdagi qarashlarini mashhur kardinal inkvizitor Bellarminoning 1615-yili 12-aprelda koperniklik tarafdori bo'lgan teolog Paolo Antonio Foskariniga yo'llagan maktubidan bilib olish mumkin⁹⁶. Ushbu maktubda kardinal cherkov koperniklikka matematikadan oson foydalanish yo'li sifatida talqin qilib, foydalanishga qarshilik qilmasligini bildiradi. Lekin uni real haqiqat sifatida tan olinishi esa injilning avvalgi talqinlarini xato deb tan olinishi isbotlab, cherkovning obro'yiga putur yetkazish bo'lardi deydi.

Bu masalani hal etish uchun olimlardan maxsus komissiya tuzadi. 1616-yil 24-fevralda inkvizitsiya ekspertlari rasmiy ravishda geliosentrizmni daxriylik deb e'lon qilishdi⁹⁷. 5-mart kuni papa Pavel V bu qarorni tasdiqlaydi. Shu kuniyoq papaning dekreti bilan Kopernikning kitobi ta'qiqlangan kitoblar ro'yxatiga tushadi. Geliosentrizmni himoya qiluvchi Galileyning "Quyoshdagi dog'lar haqida qaydlar" kitobi esa bu ro'yxatga tushmadi. Bu voqealar jarayonida (1615-yilning dekabridan 1616-yilning martigacha) Galileo vaqtini Rimda o'tkazadi. Uning masalani haqiqat tarafga burishga bo'lgan barcha urinishlari samarasiz bo'lib chiqdi. Papaning buyrug'iga ko'ra 26-fevral kuni Bellarmino uni huzuriga chaqirib unga hech narsa tahdid solmayotganligini aytib ishontirdi. Lekin bundan keyin koperniklik haqidagi har qanday gap yo'q bo'lish kerakligi haqida ogoxlantirdi. Do'stlik belgisi sifatida unga Papa bilan 45 daqiqa davomida sayr qilish imkoniyati taqdim etildi.

Cherkov tomonidan geliosentrizmga qo'yilgan ta'qiqqa Galileo hech ko'nika olmadi. Florensiyaga qaytganidan so'ng u qanday qilib cherkov ta'qig'ini buzmasdan o'z haqiqatini himoya qilish haqida o'ylay boshlaydi. Oxiri u neytral fikrlardan iborat kitob chiqarishga qaror qiladi. Bu kitobni u 16 yoshidan beri yozardi. 1616-yilgi dekretidan keyin u o'z yo'nalishini biroz boshqa tomonga

⁹⁶ Кузнецов Б.Г. Галилео Галилей.— М.: Наука, 1964.— С 117

⁹⁷ Гуревич А.Я. Проблемы средневековой народной культуры / А.Я. Гуревич. — М.: Искусство, 1981. — С.77.

o'zgartirdi. Endi u Aristotel nazariyalari bilan shug'ullanadi. 1623-yili Urban VIII nomi bilan Galileyning eski do'sti Matteo Darberini Papa bo'ladi. 1624-yilning aprelida Rimga borib u bilan uchrashib 1616-yilgi dekretning bekor qilinishiga erishmoqchi bo'ladi. Uni tantana bilan qabul qilib, sovg'alar bilan taqdirlashadi, biroq uning asosiy istagini qondirishmaydi. Ushbu ta'qiq faqat 200 yil o'tibgina 1818-yili olib tashlanadi. Shunday qilib 1630-yilgacha uning bir qancha kitoblari dunyo yuzini ko'radi. 1630-yilda esa uning o'ttiz yillik mehnatining mahsuli bo'lgan "Dialog" kitobi tayyor bo'ladi. Uni chop ettirishdan oldin o'zining do'sti va Papaning senzurchisi bo'lgan Rikkardiga topshiradi. Deyarli bir yil uning javobini kutganidan keyin u ayyorlik yo'liga o'tishga qaror qiladi. Kitobning kirish qismiga uning maqsadi koperniklikni obro'sizlantirish ekanligi haqida yozib toskan senzurasiga jo'nadi. Yana ko'p joylarini qisqartirgan holda. Ijobiy xulosalar olganidan keyin esa uni Rimga qaytarib jo'natadi. 1631-yilning yozida esa u nihoyat kutilgan ruxsatni oladi.

1632-yili "Dialog" bosilib chiqadi. U fan havaskorlari bo'lgan koperniklik tarafdori Salviati va Aristotel va Ptolomey tarafdori bo'lgan Simplicio o'rtasidagi dialog shaklida yozilgandi. Yana bir e'tiborli tomoni kitob fan tili bo'lgan lotin tilida emas, balki "xalq tili" bo'lgan italyan tilida yozilgandi. Galileo papa o'zining xiylasiga avvalgi kitoblariga qilganidek muruvvatli bo'ladi deb umid qilgandi. Buyam kamdek u o'z kitobining 30ta nusxasini Rimdagi eng e'tiborli 30 din vakiliga jo'natadi. Papa soddagina Simplicio timsolida o'zini ko'rib g'azab otiga minadi. Bir necha oydan keyin kitob sotuvdan olinib, ta'qiqlanadi. Galileyni bo'lsa bid'atchilikda ayblab Rimga inkvizitsiya sudiga chaqirishadi (o'lat kasali tarqalgan bo'lishiga qaramay). Sog'lig'i yomonligi va o'lat kasali tarqalganini bahona qilib muddatni biroz ortga surishga qilgan bir necha omadsiz urinishidan keyin (Urban bunga kishanlab, zo'rlik bilan olib kelaman deb tahdid qildi⁹⁸) Galiley bo'ysunishga majbur bo'ladi va vasiyatnoma yozib 1633-yil fevralda o'lat epidemiyasi davom etayotgan Rimga yetib keladi. Shogirdi bo'lgan Ferdinand IIning buyrug'iga ko'ra uni Toskan elchixonasiga joylashtirishadi. Tergov 1633-

⁹⁸ Гуревич А.Я. Проблемы средневековой народной культуры / А.Я. Гуревич. – М.: Искусство, 1981. – С.78.

yilning aprelidan 21-iyunigacha cho'ziladi. Birinchi so'roqdan keyin uni hibsga olishadi. Qamoqda u bor yo'g'i 18 kun turadi. Uning yoshi va kasalligini inobatga olib qamoqxona sifatida binodagi xonalardan birini ajratib berishadi. Xoynaxoy bu Galileyning birinchi tergovdayoq tavba qilishga roziligi va e'tiborli shogirdining ta'siri tufayli bo'lsa kerak. 30-aprel kuni uni Toskan elchixonasiga qaytib qo'yib yuborishadi. 21-iyun kuni Galileyni so'nggi marta so'roq qilishadi. Galiley undan talab etilayotgan inkorni o'qib eshittirishga roziligini tasdiqlaydi. Bu safar uni qo'yib yuborishmasdan yana qamoqqa olishadi⁹⁹. 22-iyun kuni esa hukm e'lon qilinadi: Galiley muqaddas bitiklarga qarshi chiquvchi, yolg'on, bid'atchilikni targ'ib qiluvchi kitobni tarqatishda aybdor deb topiladi. Uni muddatini Papa belgilaydigan qamoq jazosiga hukm qilishadi. Hukm e'lon qilinganidan keyin Galiley unga berilgan inkor matnini tiz cho'kib o'qib eshittiradi. Ushbu hukmning nusxalari Urbanning shaxsiy buyrug'iga ko'ra katolik Yevropaning barcha universitetlariga jo'natiladi¹⁰⁰.

Papa uni turmada uzoq ushlab turmaydi. Hukm e'lon qilinganidan keyin tez orada uni Medichilarning villalarida biriga joylashtirishadi, u yerdan uni do'sti arxiyepiskop Pikkolominining Sienedagi saroyiga ko'chirib o'tqazishadi. Besh oydan keyin esa unga Vataniga qaytishga ruxsat berishadi va u Archetridagi qizlari yashayotgan monastir joylashgan qishloqqa borib yashay o'rnashadi. Bu yerda u umrining so'nggi yillarini uy qamog'ida, inkvizitsiya nazorati ostida o'tkazadi.

Saqlash sharoiti turmanikidan deyarli farq qilmasdi. Unga doim arzimagan xato uchun ham turmaga qaytishi bilan tahdid qilishardi¹⁰¹. Shaharlarga borish ta'qiqlangandi. Unga esa kasalligi tufayli doimiy shifokor nazorati zarur edi. Birinchi yili turmaga tushish xavfi tufayli unga mehmonlarni qabul qilishni ta'qiqlashgan edi. Keyinchalik esa hukm biroz yumshatilib, do'stlarini qabul qilishiga ruxsat berishadi, faqat bir donadan¹⁰². Inkvizitsiya umrining oxirigacha

⁹⁹ Гуревич А.Я. Проблемы средневековой народной культуры / А.Я. Гуревич. – М.: Искусство, 1981. – С.91

¹⁰⁰ Шрейдер Ю. А. Галилео Галилей и Римско-католическая Церковь М., 1993. – С 84

¹⁰¹ Шмутцер Э. Шютц В. Галилео Галилей М., 1987. – С. 84

¹⁰² Шмутцер Э. Шютц В. Галилео Галилей М., 1987. – С. 85

uni kuzatadi. Xatto u vafot etayotganida ham uning yonida inkvizitsiyaning ikkita vakili turadi¹⁰³

¹⁰³ Спасский Б.И. История физики. М., 1977. – С. 93

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

- Rim-katolik cherkovi o'rta asrlardagi eng qudratli umumyevropa institutlaridan biri aylanadi. Aynan uning harakatlari g'arbiyyevropa mamlakatlarining bir-biriga zid keluvchi qarashlarini umumiy manfaatlarga birlashtira oldi, ular joylashgan hudud esa yagona jamiyatga birlashdi;

- “Inkvizitsiya” so'zi o'rta asrlarda “qidiruv”, “izlash” degan ma'nolarni bildirgan. Uning qudrati, ta'siri va kuchi faqat qaysidir mamlakatlarga emas, balki butun boshli Yevropaga tarqalgan;

- 1215-yili Soborning 12-yig'ilishi yeretiklarning ko'payib ketganligi uchun cherkov tomonidan sudlanganlarni munosib jazoga tortish uchun davlatga topshirish kerakligi haqida qaror chiqaradi. Bu sana inkvizitsiyaning rasmiy ravishda tashkil topishi edi. Uning eng mashxur vakillari Innokentiy III, Grigoriy IX, bo'lishgan;

- Har qanday shaxs kutilmaganda inkvizitsiyaning sudlanuvchisiga aylanishi mumkin edi. O'z dunyoqarashiga ega bo'lgan yoki o'rta asr ruhoniylarining qaysidir fikrlari bilan qo'shilmagan har qanday odamga “yeretik” tamg'asi urilardi. Bunda uning olimligi ham, aslzodaligi ham hisobga olinmagan. Har 100tadan 99ta holatda gumonlanayotgan shaxs daxshatli qiynoqlarga duchor etilib, oxir oqibat tiriklayin gulxanda yoqilishga hukm qilinardi. Bu borada doimo ruhoniylar haq, ularning gaplari to'g'ri deb qaralgan;

- Qiynoqlar inkvizitorlar faoliyatining ajralmas qismi bo'lgan. Inkvizitorlarning qo'li ostida qiynoq qurollarining butun boshli arsenali bo'lgan. Ulardan eng mashxurlari: ispan etigi, jodugarlar kursisi, yaxudiylar taxti, temir tovon, yeretiklar vilkasi, nok, ko'tarma kabi nomlar bilan atalgandi. Arqon, suv va olov qiynashda ishlatiladigan eng asosiy vositalar edi. Ularda hattoki qiynash usullari va vositalari haqida maxsus qoidalar va qo'llanmalar mavjud bo'lgan, bir xil qiynash usulini ikkinchi marotaba ishlatib bo'lmasligi kabi;

- Inkvizitsiya tizimida vikarilar, familyarlar, kompanyonlar, notarius kabilar faoliyat yuritib, aynan ular inkvizitsiya tizimining harakatlantiruvchi kuchi

vazifasini bajarganlar. Inkvizitorlarning barchasi tashkil topganidan boshlab to hozirgi kungacha ham dominikan ordeni vakillaridan tayinlanadi.

– Inkvizitsiya faoliyatida dominikan ordenidan tashqari dominikan ordeni bilan deyarli bir paytda tashkil topgan fransiskanlar ordeni va XVI asrda Ignatij Loyola tomonidan tashkil etilgan iuzeitlar diniy ordenlarining ham o'rnini bor. Agar butun boshli inkvizitsiya faoliyatiga dominikanlar ordenini bog'laydigan bo'lsak, ispan inkvizitsiyasi faoliyatini iuzeitlar ordeni bilan bog'lanadi;

– Inkvizitsiya juda tez xalqaro tashkilotga aylandi, chunki uning monaxlari qator yillardan beri Muqaddas taxt nomidan norasmiy elchi rolini bajarardilar. Papa monaxlarni inkvizitorlarga aylantirib birdaniga bir necha muammolarni hal qildi: katta josuslik tizimini yaratilishi, reformatorlar va yeretiklar tomonidan keladigan xavfni bartaraf qilardi. Inkvizitorlik majburiyatlaridan ozod monaxlar turli hududlardagi inkvizitorlik tashkilotlari bilan aloqani ushlab turardilar. U davlatdan bu davlatga yeres va unga qarshi kurash haqidagi yangi-yangi ma'lumotlarni tashish asnosida ular diplomatiya rivojida muhim rol o'ynadilar;

– Inkvizitsiya qanchalik ulkan va qudratli tashkilot bo'lmasin uning faqat Fransiya, Italiya va Ispaniyadagina alohida rasmiy tashkilotlari bo'lgan. Angliya, Germaniya, Portugaliya, Peru, Meksika va shu kabi katolik davlatlarida ham bunday tashkilotlar yo'q edi. Ingliz qiroli agar meni mamlakatimda inkvizitsiya joriy etiladigan bo'lsa, unda men o'z cherkovimni o'zim yoqib yuboraman deydi. Azaldan tarqoq bo'lgan Germaniyani hatto qudratli inkvizitsiya ham birlashtira olmaydi; XIV-XV asrlarga kelib Italiya va Fransiya ham inkvizitsiya faoliyatining sustlashganini kuzatish mumkin;

– Innikentiy III katolik cherkovi qudratini eng yuqoriga olib chiqqan papa bo'lib o'z davrining eng qudratli va mashxur shaxsi hisoblanadi. Hatto qirollar ham uning poyida tiz cho'kkanlar. “Oy yog'dusini quyoshdan olgani kabi, qirollik ham o'z yog'dusini papalikdan oladi”, degan mashxur iboraning muallifi bo'lgan papaga birinchi inkvizitor degan mualliflikni ham berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

I. Bitiruv malakaviy ishi uchun nazariy asos bo'lgan manbalar

- 1.1. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 2-жилд.
- 1.2. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 4-жилд.
- 1.3. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 3-жилд.
- 1.4. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 5-жилд.
- 1.5. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. 6-жилд.
- 1.6. Каримов И.А. Баркамол авлод –Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: 1998.
- 1.7. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
- 1.8. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 5.
- 1.9. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь;
- 1.10. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. –2017. – 25 январь
- 1.11. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги — инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир //
- 1.12. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. –17 январь;

1.13. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь;

1.4. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари — таракқиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.

II. Asosiy adabiyotlar

2.1. Альтамира-и-Кревеа, Р. История Средневековой Испании / Р. Альтамира-и-Кревеа. Пер. с испанского Е.А. Вадковской, О.М. Гармсен. – СПб.: «Евразия», 2003. – 608. – ISBN 5-8071-0128-6.

2.2. Аннерс, Э. История европейского права / Э. Аннерс. Пер. со шведского. Отв. ред.: Кудров В.М., Машлыкин В.Г.; Пер.: Валинский Р.Л., Волков А.М., Исаев М.А., Шенявская Т.Л. – М.: Наука, 1996. – 395 с.

2.3. Арну, А. История инквизиции / А. Арну. – СПб.: «Евразия», 1995. – 320 с.

2.4. Болотов, В.В. Лекции по истории древней церкви: в 3 т. Т. 1.: Введение в церковную историю / В.В. Болотов. – М.: Мартис, 1994. – 234 с.

2.5. Величина, В. Очерки истории инквизиции / В. Величина. – М., 1906. – 304 с.

2.6. Властные институты и должности в Европе в Средние века и раннее Новое время / Отв. ред. Т.П. Гусарова. – М.: КДУ, 2011. – 600 с. – ISBN 078-5-98227-773-2.

2.7. Гергей, Е. История папства / Е. Гергей. – М.: Наука, 1996. – 386 с. – ISBN 5-678875-5678-2.

2.8. Грановский, Т.Н. Лекции по истории средневековья / Т.Н. Грановский. Составитель С.А. Асинновская. – М.: Наука, 1971. – 604 с.

2.9. Григулевич, И.Р. История инквизиции / И.Р. Григулевич. – М.: ТЕРРА-Кн. клуб, 2002. – 479 с. – ISBN 5-275-00558.

2.10. Григулевич, И.Р. Папство. Век XX / И.Р. Григулевич. – М.: Политиздат, 1974. – 424 с.

- 2.11. Григулевич, И.Р. Преступления инквизиции в Испанской Америке (XVI-XIX вв.) / И.Р. Григулевич // Новая и новейшая история. 1966, № 6. С. 34-46.
- 2.12. Гуревич, А.Я. Проблемы средневековой народной культуры / А.Я. Гуревич. – М.: Искусство, 1981. – 358 с.
- 2.13. Гутнова, Е.В. Классовая борьба и общественное сознание крестьянства в средневековой Западной Европе (XI-XV вв.) / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1984. – 352 с.
- 2.14. Гутнова, Е.В. Историография истории средних веков / Е.В. Гутнова. – М.: Наука, 1985. – 268 с.
- 2.15. Дюби, Ж. Европа в Средние века / Ж. Дюби. – Смоленск: Полиграмма, 1994. – 320 с. – ISBN 5-87264-027-7.
- 2.16. Заборов, М.И. Папство и крестовые походы / М.И. Заборов. – М., 1960. – 406 с.
- 2.17. Занков, Д.С. Ведовские процессы в Западной Европе (XV-начала XVIII вв.): автореф. дис. ... канд. ист. наук / Д.С. Занков. – СПб., 200 – 245 с.
- 2.18. Карсавин, Л.П. Очерки средневековой религиозности / Л.П. Карсавин. // История ересей. – М., 2007. С. 30-52.
- 2.20. Карсавин, Л.П. История европейской культуры: в 2 т. Т. 2. / Л.П. Карсавин. – СПб.: Алетейя, 2001. – 334 с. – ISBN 5-90329-639-7.
- 2.21. Керов, В.Л. Народные восстания и еретические движения во Франции в конце XIII-XIV вв. / В.Л. Керов. – М., 1979. – 114 с.
- 2.22. Ковалев, С.И. Основные вопросы происхождения христианства / С.И. Ковалев. – М., 1964. – 368 с.
- 2.23. Корсунский, А. История Испании IX-XIII вв. / А. Корсунский. – М., 1976. – 328 с.
- 2.24. Крывелев, И. Христианская церковь с конца V по конец XI в. / И. Крывелев // Антираелигиозник. – М., 1939. № 8. – С. 36-39.
- 2.25. Кудрявцев, А.Е. Испания в средние века / А.Е. Кудрявцев. – Л., 1937. – 304 с.

- 2.26. Ланглуа, Ш.В. Инквизиция по новейшим исследованиям / Ш.В. Ланглуа. – СПб.: «Евразия», 2001. – 84 с.
- 2.27. Ле Гофф, Ж. Цивилизация средневекового Запада / Ж. Ле Гофф. – М.: «Прогресс», 1992. – 360 с. – ISBN 5-01-00-36-17-7.
- 2.28. Ле Гофф, Ж. Средневековый мир воображаемого. / Ж. Ле Гофф. Под общ. ред. С.К. Цатуровой. – М.: «Прогресс», 2001. – 440 с. – ISBN 5-01-0046673-3.
- 2.29. Ли, Г.Ч. История инквизиции в средние века: в 3 т. / Г.Ч. Ли. – СПб.: Ладомир, 1994. – Т. 1. – 608 с. – ISBN 5-86218-103-21912; Т. 2. – 604 с. – ISBN 5-86218-103-21912; Т. 3. – 514 с. – ISBN 5-86218-103-21912.
- 2.30. Лозинский, С.Г. История папства / С.Г. Лозинский. – М., 1961. – 306 с.

III. Internet resurslari

- 2.1. www.ziyouz.com // Xristian cherkovi tarixi
- 2.2. www.ziyonet.uz // Inkvizitsiya haqida
- 2.3. www.google.uz // History of autadafe
- 2.4. www.history.ru // Life of Innokenty III